

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKUL‘TETI**

**MUSIQA TA‘LIMI KAFEDRASI**

**Temirova Shaxnoza Turg‘un qizi**

5111100-“Musiqqa ta‘limi” yo‘nalishi bo‘yicha  
bakalavr darajasini olish uchun

**“O‘quvchilarga opera va balet janrlarini idrok etishni  
o‘rgatishning musiqiy pedagogik xususiyatlari”**

mavzusida yozgan

# **Bitiruv malakaviy ishi**

Ilmiy rahbar: dots. Ismoilova M

**“Himoyaga tavsiya etildi”**

Fakultet dekani:

\_\_\_\_\_dots. Sh.Nurillayeva

\_\_\_\_\_ 2015 yil

## MUNDARIJA.

Kirish.....	3
<b>IBOB. O‘zbekistonda opera va balet janrlarini tashkil topishi va rivojlanishining tarixiy va nazariy asoslari.</b>	
I.1 Opera va balet janrlarining O‘zbekistonda paydo bo‘lishi va rivojlanishi.....	8
I.2. Opera va balet janrlari o‘quvchilarni ma‘naviy – axloqiy tarbiyalashda muhim vosita sifatida.....	23
<b>IIBOB.Maktabda opera va balet janrlarini tinglash va idrok etish madaniyatini o‘rganish.</b>	
II.1. O‘quvchilarni o‘zbek kompozitorlarining yaratgan opera va balet asarlari bilan tanishtirish.....	32
II. 2 5-7 sinf o‘quvchilariga o‘zbek kompozitorlarining opera va balet asarlaridan namunalar tinglash, kuylash va idrok etishni o‘rgatish metodlari.....	40
II. 3. Maktabda tajriba –sinov ishlari olib borish va natijalarini aniqlash.....	49
Xulosa.....	53
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	56
Ilovalar.....	58

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi** Prezident Islom Karimov ma'naviyatni avvalambor odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuchga qiyoslaydi.

“O'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va Jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari bilan bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoit yaratish musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi”<sup>1</sup>. Chindan ham yoshlarimiz qalbida ularning musiqiy nafosat dunyosiga oshno etmasdan turib ularning ma'naviyati haqida so'z yuritish quruq safsata desak yanglushmaymiz.

Yoshlar qalbida musiqa orqali yuksak nafosat “nafis his-tuyg'ular , sog'lom did, vatanga muhabbat, insonparvarlik, yuksak milliy g'urur, milliy iftixor o'sib shakllanib boradi. Asta-sekin ona yurtimizda aqlli, didli, madaniyatli, ma'naviyatli avlod o'sib etishadi. Shu holatni teran anglagan va uzoqni ko'ra olgan prezidentimiz “bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda” deb ta'kidladilar.

Prezidentimiz I.A.Karimov – “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch “ asarida: - “Agar insonning qulog'i engil-elpi ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi hech gap emas. Oxir oqibatda bunday odam “Shashmaqom” singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi”-

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat engilmas kuch” O'zbekiston T. 2008 yil. 9-bet.

deb ta'kidlangan<sup>2</sup>. Musiqa tarbiyasi umumtarbiyaning asosiy va murakkab qurollaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni yuksak idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiribgina qolmay balki ma'naviy dunyoqarashlarini shakillantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli e'tibor, kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy-estetik tarbiyaning muhim vositasidir. Buyuk qomusiy olimimiz Abu Nasr Al Forobiy "Bu fan hammamiz uchun foydalidir" degan edi. Bobomiz Shayx Sa'diyning shunday so'zlarini keltirishimiz mumkin "Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir". Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotini aktiv rivojlantiruvchi vositadir.

Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash, musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib qoladi.

Maktabda o'quvchilarga qo'shiq kuylatish, opera va balet asarlarini tinglash orqali yoshlarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Musiqaning axloqiy-estetik tarbiyadagi roli falsafa, musiqashunoslik va ijrochigagina doir adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, lekin opera va balet janrlarining shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi roli haligacha ilmiy yoritilmagan. Buning sababi bizningcha opera va balet janrining murakkabligi va uning inson ongiga ta'sirining ko'p qirraliligidir. Biz ushbu ishimizda opera va balet san'atining tarbiyaviy jihatlarini va uning yangi insonni kamol toptirishdagi rolini yoritishga harakat qilamiz.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini quyidagicha belgiladik: "O'quvchilarda opera va balet janrlarini idrok etishni o'rgatishning musiqiy pedagogik xususiyatlari".

---

<sup>2</sup> I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" O'zbekiston T. 2008 yil. 141-bet.

**Tadqiqotning maqsadi** 5-7 sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishda opera va balet asarlarini eshitib idrok etishda samara beradigan uslub va vositalarni tanlab amalda qo'llash, olingan ijobiy natijalarni amaliyotga tavsiya etishdan iboratdir.

**Ilmiy ishining ob'ekti** Qarshi shahar 29-son umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining 5-7- sinflarida amalga oshirib boriladigan musiqa madaniyati darslarining mazmuni hisoblanadi.

**Ilmiy tadqiqot ishining vazifalari** tanlangan mavzuning dolzarbligi va maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagicha belgilandi:

1. Tajribali musiqa o'qutuvchilarining ish faoliyatini o'rganish va umumlashtirish;
2. O'quvchilarda tinglash va kuylash malakalarini shakllantirishda opera va balet asarlarining imkoniyatlarini aniqlash;
3. O'quvchilarni o'zbek opera va balet asarlari orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda samara beradigan yo'l va uslublarni aniqlash;
4. Tajriba -sinov ishlari olib borish va uning yakuniy natijalari asosida ilmiy asoslangan pedagogik tavsiyanomalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot ishining predmeti**- opera va balet janrlari orqali o'quvchilarda estetik tarbiyani amalga oshirish jarayoni hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining metodlari:** O'quvchilar bilan suhbat, bahs-munozara yuritish intervyu olish, anketa savol-javoblarini o'tkazish va sinov-tajriba ishlarini olib borish. O'zbek kompozitorlarining operalaridagi qo'shiqlardan va balet asarlaridan o'quvchilarning estetik idroki, did va ijrochiligi uchun mos bo'lganlarini tanlab olish. Ulardan musiqa madaniyati darslarida keng foydalanishdir.

**Tadqiqot ishining ilmiy farazi:** Opera va balet janrlari orqali o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash ishlarini samarali amalga oshirish mumkin, agarda:

-O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashni amalga oshirishda opera va balet san'atining o'rni va ahamiyati tarixiy va nazariy asoslansa;

-O'zbek kompozitorlari operalaridagi qo'shiqlardan maktab musiqa to'garaklarida foydalanishning samarali yo'l va uslublari ishlab chiqilsa;

-O'quvchilarni musiqa orqali tarbiyalashning maqsad va vazifalari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilsa;

-O'zbek operalarini yaratgan mualliflarning hayoti va ularning yozish uslublari xos xususiyatlari bilan o'quvchilarni tanishtirib borilsa;

-O'rganiladigan o'zbek opera asarlarining mazmuni bilan o'quvchilarni batafsil tanishtirib borilsa ko'zlagan maqsadga erishish bir muncha osonlashadi.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini** Prezidentimiz I.A.Karimovning mavzuga mos keladigan fikrlari, "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", o'rta asrlarda Sharqning buyuk qomusiy olimlari tomonidan bildirilgan fikrlar, taniqli pedagog, psixolog va musiqashunos, olimlarning asosiy fikrlari hisoblanadi.

**Tatqiqotning ilmiy yangiligi.** -O'quvchilarda o'zbek opera va balet asarlarini o'rganish masalalari pedagogik muammo ekanligi yaxlit bir butun holatda tadqiq etildi.

-Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni musiqiy axloqiy tarbiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarning mazmuni ishlab chiqildi.

-O'quvchilarni opera va balet janrlarini o'rgatishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samaradorlik darajasi aniqlandi.

-O'quvchilarda opera va balet janrlarini o'rgatishga qaratirilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

-O'quvchilarni axloqiy tarbiyalash dolzarb pedagogik muammo ekanligi yaxlit, bir butun holatda tadqiq etildi.

-Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarni opera va balet janrlari opqali musiqiy estetik tarbiyalashga qaratilgan mashgʻulotlarning mazmuni ishlab chiqildi.

-Oʻquvchilarni musiqiy bilimdonligini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samaradorlik darajasi aniqlandi.

-Oʻquvchilarni estetik tarbiyalashga yoʻnaltirilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi. .

**Bitiruv malakaviy ishimiz uch bosqichda amalga oshirildi.** Tadqiqotning **I-bosqichida** mavzuga taalluqli ilmiy- nazariy, pedagogik, metodik, tarixiy, psixalogik musiqiy adabiyotlar oʻrganildi.

5-7 sinflarda musiqa madaniyati darslarini oʻtish ahvoli kuzatildi. Qayd qiluvchi sinov oʻtkazildi, musiqa darsliklari tadqiqot mavzusi nuqtai nazaridan tahlil dilindi:

**II-bosqichda** tajriba - sinov ishlarining natijalari oʻrganildi, tahlil oʻtkazildi, umumlashtirilgan holda ulardan tegishli xulosalar chiqarildi. Shuningdek bu bosqichda ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

**III- bosqichda** tavsiya, xulosalar qayta tahlil etilib, ishning milliy matni tayyorlandi.

Tayyorlangan bitiruv malakaviy ishimizning **ustivor gʻoyasi** shundan iboratki ustoz-muallim maktab oʻquvchilariga oʻzbek kompozitorlarining opera asarlaridagi qoʻshiqlarni mohirlik bilan oʻrgata olsa, balet asarlarini tinglatsa oʻquvchi yoshlar qalbida axloqiy tarbiya asta-sekin rivojlanib shakllana boradi.

**Bitiruv malakaviy ishimiz tarkibi** kirish, ikki bob, 5ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## **IBOB. O'zbekistonda opera va balet janrlarini tashkil topishi va rivojlanishining tarixiy va nazariy asoslari**

### **I.1. Opera va balet janrlarining O'zbekistonda paydo bo'lishi va rivojlanishi**

Opera-musiqa san'atining eng yirik janri hisoblanadi. U bastakorning talabiga javob beradigan libretto, ya'ni she'riy dramatik pyesa asosida yaratiladi. Opera ham teatr tomoshasidir, barcha sahna bezaklari, kiyim-kechaklar, raqs harakatlari va boshqalar asar mavzusini, bo'lib o'tayotgan voqea davrini ochishga xizmat qiladi. Operada voqealar, gapiriladigan so'zlar- u kuylanadigan qo'shiqlar, hamma-hammasi musiqaga asoslangan bo'ladi.

Opera-lotincha so'zdan olingan bo'lib, mehnat mahsuli, asar degan ma'noni bildiradi. Opera qorishma (sintetik) janr hisoblanadi, u o'zida bir necha san'at turlarini mujassam etadi: Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at va raqs san'ati shakllari yaxlit sahnaviy jarayonda uzviy bog'lanadi. Lekin musiqa ular orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Operaning adabiy asosi-librettodagi voqealar musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, avvalo vokal musiqa shakllarida gavdalantiriladi. Qaxramonlarning hissiy kechinmalari asosan yakkaxon xonanadalar ijrosidagi ariya, kavatina kabi tugal musiqa lavhalarida o'z ifodasini topadi. Xor esa ro'y berayotgan voqealarning izohlovchi vositasi vazifasini bajaradi, uning yordamida xalq hayoti lavhalari gavdalanadi. Operada orkestr ham katta o'rin egallaydi: vokal sikllarga jo'r bo'ladi, mustaqil cholg'u qismlarida vaziyatning mazmunini ochib beradi. Operaning tuzilishi uning g'oyaviy maqsadiga, syujet xususiyatlariga va uslublariga hamda kompozitorning ijodiy tafakkuriga bog'liq.

Opera XVI asrning oxirlarida Italiyada paydo bo'lgan. U mavzusi va musiqa tiliga qarab, asosan ikki turga ya'ni jiddiy operalar va hajviy operalarga bo'linadi.



Italiyalik bastakor JuzeppeVerdi, Avstriyalik bastakor Wolfgang Amadey Motsart opera yaratishning eng yaxshi namunalarini yozib ketganlaridan so'ng, bu janrning taraqqiyoti XIX asrda Rossiyada yuksaklarga ko'tarildi. Buni butun dunya xalqlari tan oladi. Bastakor Mixail Glinka (1804-1857-yillarda yashab, ijod qilgan)- " Ivan Susanin", " Ruslan va Lyudmila" operalarini yaratib rus opera san'atiga asos soldi.

JuzeppeVerdi1813-1901-yillarda yashab, ijod qilgan Italiyalik buyuk bastakordir. Uning –"Aida ", "Rigoletto", "Traviata", "Otello" kabi operalari shu janrda yaratilgan 27 ta asari ichida eng durdonalari hisoblanadi. Verdi operalari sahnaga qo'yilib, birinchi ijro bo'lgan kun Italiyada bayramga aylanib ketardi. Xalq muallifni olqishlab, hozirgina tinglab- tomosha qilgan operalaridan kuy-qo'shiqlarini, yodlab olib, ko'chalarda baralla aytib uylariga qaytishardi.

Albatta, bunday muvaffaqiyatlarning sababi, J. Verdi o'z xalqining kuy-ohanglarini yaxshi bilishi va o'tkir didli ijodkor sifatida tinglovchilar ehtiyojini yaxshi sezishidir.

Juzeppe Verdidan so'ng butun dunyo xalqlaridan chiqqan bastakorlar uning darajasida operalar yaratishni havas qilishadi, orzu qilishadi... Demak, jahon opera san'atida J.Verdi ijodining o'z o'rni bor va ahamiyati katta.

Asrlardan-asrlarga o'tib kelayotgan opera durdonalari mualliflarining nomlari bugungi kunda ham butun dunyoga taniqli.

Wolfgang Amadey Motsartning " Volshebnaya fleyta" ( " Sehrli nay") Jorj Bizening "Karmen" operasi, Pyotr Chaykovskiyning "Pikovaya dama"( " Toppon xonim") , "Evgeniy Onegin" operalari, N.Rimskiy-Korsakovning"Snegurochka"( "Qorqiz"), " Satko", "Shoh Sulton haqida ertak", " Oltin xo'rozcha" operalari butun dunyoda mashhurdir.

Turkistonda uzoq yillar davomida rus ziyolilarning yashab turganlari, ularning san'atga bo'lgan qiziqishlari natijasida Toshkentda rus opera teatri ochiladi. Opera

teatrining tashkil topishida asosiy turtkildan yana biri Italiya opera guruhining 1900 yilda Toshkentda qilgan gastrollari (ijodiy safarlari) bunda asosiy sababchi bo'lgan. Italiyaliklar Toshkentda «Rigoletto», «Traviata», «Trubadur», «Karmen», «Faust» kabi operalarni rus ziyolilariga tanishtirganlar. Shu bilan birga rus ziyolilari o'z konsert dasturlarida g'arb va rus klassik kompozitorlarining simfonik asarlarini operalardan parchalarni, simfonik syuitalarni ijro etishlari bilan rus opera teatrining tashkil topishida poydevor yasaganlar. Opera teatrining birinchi spektakllari Dargomijskiyning «Rusalka», Chaykovskiyning «Yevgeniy Onegin» operalari bo'lgan. Opera janrining keng ommaga tarqalib borgani tufayli rus opera teatri sahnasida Verdining «Rigoletto», Sharl Gunoning «Faust», Rubenshteynning «Demon», Chaykovskiyning «Pikovaya dama», Musorgskiyning «Boris Godunov», Boroddining «Knyaz Igor», Verdining «Traviata», «Aida, Puchchinining «Bogema», Rossinining «Seviliya sartaroshi» asarlari sahna yuzini ko'rdi. Rus opera teatrining san'atkorlari O'zbekiston viloyatlariga chiqishlar tashkil qilib opera san'atini o'zbek xalqi orasida targ'ibot eta boshladilar va bu xizmatlari o'zbek operalarini tashkil topishiga asos bo'ldi.

30-nchi yillarning 1-yarmisidan boshlab birinchi o'zbek operalari vujudga kela boshladi. Bular S.Vasilenko va M.Ashrafiylarning «Bo'ron» operasi bilan R.Gliyer va T.Sodiqovlarning «Layli va Majnun» operalari edi.

«Bo'ron» operasi besh pardali katta asar bo'lib uning mazmunida 1916 yilda Jizzaxda bo'lib o'tgan o'zbek xalqining chor hukumati bilan bo'lgan to'qnashuvlari o'z aksini topgan. Ko'zg'olon bostirilgan bo'lsa ham lekin o'zbek xalqining ozodlikka chiqish uchun intilishlari asarda asosiy maqsad bo'lib qolgan.

Operaning kiskacha mazmuni. Boydan qarzdor bo'lgan Bo'ron ismli dehqon yerlarini tortib oladilar. Lekin shu vaqtda Bo'ron Jo'ra ismli o'g'lini Norgulga o'ylantirish kerak edi. Yon qo'shnilar Bo'ronga moddiy yordam berib to'yni boshlaydilar. To'y avjida mahalliy amaldorlar kelib o'zbek yigitlarini boshqa shaharlarga «Mardikorlikka olib ketmoqchi bo'ladilar. Lekin amaldorlar o'z farzandlarini qoldirib kambag'allar bolalarini jo'natmoqchi bo'ladilar. Dehqonlar qarshilik ko'rsatib o'nboshini o'ldiradilar. Bo'ron boshchiligidagi bir guruh

dehqonlar toqqa chiqib ketadi. Ularga Jo'ra ham qo'shiladi. Podshoh tomonidan yuborilgan qo'shinlar qishloqda ancha qon to'kadilar va shular qatorida Norgul ham nobud bo'ladi. Bo'ronning hovlisiga o't qo'yadilar. Shu vaqtda Bo'ron boshchiligidagi dehqonlar qishloqqa kirib kelib podshoh qo'shinlarini quvib yuboradi.

Operaning qisqacha mazmunini (librettosini) Komil Yashin yozgan. Unda ikki tuzim qarama-qarshiligi, xalqlar orasidagi do'stlik aniq" o'z ifodasini topgan. Operadagi asosiy qahramon bu xalq. Xalq Bo'ron boshchiligida podshoh tuzumiga qarshi kurashadi.

Operada juda ko'p xalq qo'shiqlari «Gul o'yini», «Girya », «Chamanda gul», «Tanovor», «Oq oydin kechalar», «Farg'onacha» kompazitorlar tomonidan orkestlashtirilib asar mazmunini boyitishga sababchi bo'lganlar.

«Bo'ron» o'perasida Hamzaning «Ishchi bobo», «Biz ishchimiz», «Hoy ishchilar» qo'shiqlaridan foydalanilgan. «Bo'ron» operasida ariyalar uncha ko'p bo'lmasada lekin bor ariyalar obrazlari xarakterlarini yoritishida salmoqli musiqiy asarlar jumlasiga kiradi.

S.Vasilenko bilan M.Ashrafiy bu operani olti oy davomida ijod qilib 1939 yilning 25 martida tugallaydilar. «Bo'ron» operasini sahnalashtirishda ancha qiyinchiliklar ham bo'ladi. Birinchidan bu Yangi janrni sahnada ijro etishda xonandalarga noqulayliklar tug'dirdi, chunki musiqali drama bilan opera orasida katta farq bor edi. Lekin shu bilan birga milliy uzbek og'zaki an'analari bilan bog'liq bo'lgan sahnalar ham ijrochilarga va tinglovchilarga ham maroq bag'ishlagan edi.

«Bo'ron» operasini sahnalashtirishi bu ikki (rus va o'zbek) millat orasidagi birodarlikni mustahkamlashda va ikki kompazitorlar S.Vasilenko va M.Ashrafiylarning ijodiy hamkorliklarini timsoli bo'ldi.<sup>3</sup>

Opera 1939 yilda Toshkentda sahnalashtirilib o'zbek musiqali drama teatri O'zbek Davlat opera va balet teatriga aylandi. Asosiy rollarni Halima Nosirova (Norgul), Karim Zokirov (Bo'ron), Fotima Boruxova (Zebiniso)lar ijro etganlar.

---

<sup>3</sup> Ismoilova M.E. Musiqa tarixi. ma'ruzalar matni . 2015 yil -62 bet

O'zbek operasining dunyoga kelishi bu zamon talabi bo'lib respublikamizning madaniy rivojiga yana bir katta qadam hisoblanadi.

«Bo'ron» operasi bilan bir qatorda G.M.Gliyer va T.Sodiqovlarning «Layli va Majnun» operasi ijod qilindi va bu asar A.Navoiyning shu nomli dostoni asosida yaratilgan edi.

Operaning ksqacha mazmuni arab qabila boshlig'ining Layli ismli qizi Qays nomli yigitni sevadi. Layli Qaysning ishqiy she'rlariga, xotin-qizlarni e'zozlaydigan asarlariga mahliyo bo'lgan edi. Lekin shariat qoidalariga ko'ra Qays islom diniga xiyonat qilgan, chunki ayollarni erkaklar bilan tenglashtirgan. Ruhoniylar Qaysni-Majnun, ya'ni devona deb kamsitiadilar. Odamlarning diqqati tushib qolgan Qays Layli bilan bo'lgan muhabbatini oxirigacha yetishiga ishonch hosil qilmagach dashtu-sahrolarga yovvoyi hayvonlar orasiga chiqib ketadi. Layli esa otasining ixtiyori bilan badavlat kishi Ibn-Salomga turmushga chiqishi kerak bo'lganda sevgan yigiti Qaysni qo'msab qo'ladi. Uning qabri ustida Qays ham jon beradi. Ular motamlarini faqat yaqin qovmu-qarindoshlari tutadilar. Ikki sevishgan qabrida ikkita qizil gul o'sib chiqadikim, bu-o'lmas sevgi va hamisha yoshlik timsoli edi.

«Layli va Majnun» operasida obrazlar ariyalarida o'zbek musiqa merosi-maqomlar, xalq kuy va qo'shiqlari asos bo'lib unda «Iroq», «Segoh», «Ushshoq», «Chorzarb», «Chorgoh», «Bayot», «Chapandozi gulyor»lar ishlatilgan.

40-50 yillar davomida Alisher Navoiy nomidagi Davlat opera va balet teatri sahnasida bir necha opera asarlari sahnalashtiriladi. Uning repertuaridan rus va chet el opera va balet asarlari o'rin olib shular qatoriga qardosh xalqlar kompozitorlarining asarlari ham teatr sahnasidan joy oladi.

1(Yu.Kabalevskiyning «Taras oilasi», T.Xrennikovning «Bo'ronda», G.Mayborodaning «Arsenal» va A.Kozlovskiyning O'zbekistonda ijod qilgan «Ulug'bek» operalari shular jumlasiga kiradi. Lekin ko'zga tashlangan muammolardan eng asosiysi bu milliy o'zbek operalarini ijod qilish va ularni sahnalashtirishdan iborat edi. Shuning uchun ham 1947-1967 yillar davomida bir necha o'zbek milliy operalari ijod qilinib teatr sahnasida qo'yildi. Oldingi yillar

sahnalashtirilgan operalar: S.Vasilenko va M.Ashrafiylarning «Ulug‘ kanal», R.Gliyer va T.Sodiqovlarning «Gulsara», T.Jalilov va B.Brovtsinlarning «Tohir va Zuhra», G.Mushel va V.Uspenskiylarning «Farhod va Shirin» operalari bilan bir qatorda Yangi ijod qilingan o‘zbek milliy operalari ham asta-sekin musiqa san’atining opera janrida ijod qilinib sahna yuzini ko‘radi. Bular M.Ashrafiyning «Dilorom», T.Sodiqov, B.Zeydman, Yu.Rajabiy, D.Zokirovlarning «Zaynab va Omon», S.Boboyevning «Hamza», M.Yusupovning «Xorazm qo‘shig‘i», M.Ashrafiyning «Shoir qalbi», R.Hamroyevning «Zulmatdan ziyo» asarlaridir.

Yuqorida nomlangan asarlar orasida A.Navoiyning «Sbbai sayyor» poemasidan «Dilorom» operasi dramaturglar K.Yashin va Mumtoz Muxammedovlar bilan kompozitor M.Ashrafiyning o‘zbek klassik adabiyotidan zamonaviy asar yaratishda qilgan xizmatlari o‘zbek musiqa madaniyatida alohida o‘rinni egalladi.

To‘rt parda va yetti ko‘rinishdan iborat «Dilorom» operasi A.Navoiy nomli Davlat opera va balet teatri sahnasida qo‘yiladi. Voqealar shoh va amaldorlarning xalqqa nisbatan shafqatsizligi va zulmdan xalq norozi bo‘lib qo‘zg‘olon ko‘tarishidir. Diloromni kuch ishlatib olmoqchi bo‘lgan shoh Bahrom va uning sheriklariga qarshi ko‘tarilgan kurash fonida yuz beradi. Dilorom shafqatsiz shohga bo‘ysynmaydi va o‘z hayotini qurbon qilib nomus va muhabbatini saqlab qoladi.

Operaning qisqacha mazmuni. Badavlat Ulug‘ Xo‘ja uyida uning quli bo‘lgan go‘zal ashulachi Dilorom voyaga yetadi. Dilorom ajoyib rassom Monini sevib qoladi. Moni o‘z sevgilisini Ulug‘ Xo‘jadan sotib olishga va unga uylanishga ahd qiladi. Lekin go‘zal Diloromni shoh Bahrom ko‘rib unga mahliyo bo‘ladi va katta sovg‘alar evaziga Diloromni Ulug‘ Xo‘jadan o‘ziga sotib oladi. Moni Diloromni juda ko‘p qidiradi va oxiri Bahromshoh. dargohidan topadi. Lekin Bahromshoh Monini zindonga tashlab Diloromni o‘z qasriga qamab qo‘yadi. Fursatdan foydalanmoqchi bo‘lgan Bahromshohning vaziri Ardasher Dilorom qo‘liga zahar berib Bahromshohni o‘ldirishni buyuradi. Bahromshoh saroyida katta bazm o‘tadi. Bazmda yetti go‘zal qatnashib har biri o‘zining san’atini namoyish etadi. Dilorom ham o‘zining sevgi haqidagi mungli qo‘shig‘ini kuylaydi. Ardasher bergan zaharni Dilorom o‘zi ichmoqchi bo‘lib turganda Ardasher uni qo‘lidagi

qadahni olib Bahromshohga uzatadi, lekin shoh bu qadahni go‘zallardan biriga beradi. Go‘zal uni ichib o‘ladi. Baxromshoh bu voqeadan achchikdanib Monini osishga va Diloromni cho‘lu-biyobonga olib borib tashlashni buyuradi. Cho‘lda bo‘ron ko‘tariladi. Dilorom o‘z sevgilisi Monini chaqiradi. Diloromni axtarib yurgan Moni yetib keladi va sevishganlar bir-birlari bilan uchrashadilar. Dilorom Monining qo‘lida jon beradi.

Kompozitor M.Ashrafiy operani ijod qilishda xalq kuy va qo‘shiqparidan mohirlik bilan foydalangan. Yetti go‘zal qiyofasida tojik, eron, hind va arab kuylarini ishlatib go‘zallar obrazlarini yana ham boyitgan.

Moni ariyasini ijod qilishda xalq kuyi bo‘lmish «Karimqul--begi»ni ishlatgan. Monining boshqa ariyasida «Navo» maqomidan «Sarohbori navo» ni ustalik bilan qayta moslashtirilgan.

Dilorom ariyalari ham ashulachi qiyofasini ifodalashda yoqimli va kuychan musiqalar bilan shu obraz ochib tashlangan, Bahromshoh, Ulug‘ Xo‘ja obrazlarini aks ettirishda ham kompozitor o‘sha shaxslarga xos kuylarni bastalagan. Shoh saroyidagi bazmlarda ijro etilgan musiqalar ham o‘zining tantanavorligi, quvnoqligi va o‘ynoqligi bilan tinglovchilarning diqqati-e’tiborini o‘ziga jalb etadi.

«Gulsara» operasi avvallari yozilgan shu nomli musiqali drama singari o‘zbek ayolining ozodlikka chiqishi mavzusi bilan bog‘liqdir, Albatta, spektakl mazmunini 40-yillar oxirining tomoshabini «Gulsara» musiqali dramasi o‘n ikki yil avval birinchi bor sahnalashtirilgandagidan boshqacharoq qabul qiladi. Vahshiyona mutaassiblik ham, paranji tashlagani uchun qonli o‘ch olish ham uzoq, o‘tmishda qolib ketgan edi. Lekin eski ideologiya e’tiqodlari, xususan, ayollarga nisbatan boy-feodallarcha munosabat hali hayotda uchrab turardi. Shuning uchun ularga qarshi kurash o‘z keskinligini yo‘qotmagan edi. Ko‘pgina o‘zbek ayollarining hayoti, kurashi, orzulari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Gulsaraning taqdiri tomoshabinlar qalbida aks sadosini topar edi. «Gulsara» ning ommabopligi, hayotiyligi ham shundadir.

Libretto avtorlari K. Yashin va M. Muhamedov yaxlit, izchil rivojlangan voqelikni yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Ayniqsa bosh qahramon obrazi to'laqonli chiqqan. Spektaklning boshlanishida u zaif va itoatkor, ongida ayolni qullarcha itoatkor bo'lishga mahkum qiladigan eski musulmon aqidalari ustunlik qiladi. Lekin asta-sekin, chuqur jafolar tufayli Gulsara o'tmish sarqitlariga qarshi ochiq, shiddatli kurashish zarurligini anglaydi.

<sup>1</sup> Spektaklning qahramoni, yosh juvon Gulsara o'z eri — ilgor ishchi Qodir ta'sirida paranjisini tashlab, o'qishga kirishga qaror qiladi. Lekin bu rejasi reaksion din xurofotchilarining quroliga aylangan Gulsaraning otasi— Ibrohimning qarshiligiga uchraydi. Drama qizini otasining zulmidan himoya qilmoqchi bo'lgan qahramonining onasi — Oysaraning o'limi bilan tugaydi. Gulsara Ibrohimning qo'lidan qutulib chiqib, maydonga chopadi va barcha ayollarni yangi hayot uchun kurashga chorlaydi.

Opera asosiga T. Jalilov yig'ib, qisman yaratib bergan T. Sodiqov yozib olgan va R. Glier qayta ishlagan kuylardan tashkil topgan «Gulsara» musiqali dramasi materialini olingan. Dramaning aksar musiqali nomerlari operaga barcha garmonik va orkestr fakturasi detallari bilan ko'chirilgan. Shu bilan birga opera partiturasida yangiliklar ham oz emas. Dialoglar o'rniga rechitativlar kiritildi, ba'zi sahnalar yangidan yozildi. Ilgarilari faqat dramatik rolda chiqqan personajlar (xotin-qizlar bo'limining boshligi Ruzvon opa va uning yordamchilari — komsomol qizlar) endi o'zlarining partiyalariga ega bo'ldilar. Ba'zi bir ariya va ansambllarning kuylari yetakchi musiqa temalari darajasigacha ko'tarildi. Opera shaklining leytmotiv va leyttema kabi muhim elementlari kiritildi.

Misol tariqasida shunday temalardan biri — T. Jalilov yaratgan temani keltiramiz. Bu yorqin intiluvchan kuy operaning birinchi ko'rinishidagi markaziy epizod— Gulsaraning paraji tashlashga rozilik berishi bilan yakunlovchi ikki yoshning sevgi duetida paydo bo'ladi; Temaning milliy negizlari aniq eshitiladi, lekin shu bilan birga, bu endi folklor sitatasi emas, balki muhim dramaturgik funksiyani bajaruvchi tema-obrazdir. Tema kuyining tuzilishi xilma-xil rivojlantirish usullarini qo'llashga imkon beradi.

Bosh qahramonlar—Gulsara va Qodirning partiyalari ashula xarakteridagi kuylarga asoslangan. Ba'zi ariya (qo'shiq)lar milliy folklorning asl namunalari. T. Jalilov yaratgan kuylarning aksariyati ularga hamohangdir. Biroq bastakor milliy meros namunalarini aynan ko'chirmaydi. Folklor kuyi Jalilov uchun faqat namuna bo'lib, uning asosida sifat jihatidan yangi badiiy hodisa yuzaga keladi. Bu borada Qodir ariyasi (to'rtinchi parda) ning iliq, qalbga yaqin, ifodali kuyi ibratlidir

Ro'zvon opa va Gulsaraning dugonasi — quvnoq, sho'x Asalning musiqali tili o'zgachadir. Xotin-qizlar bo'limi boshlig'ining irodali, harakatchan obrazini ifodalashda kompozitorlar o'zbek ommaviy qo'shiqlarining intonatsion doirasiga murojaat qilishadi. Asal obrazini ifodalashda esa tarixan operada shakllangan koloraturali soprano partiyasiga xos vositalardan foydalanishgan. Shunga qaramay, Ro'zvon opa va Asal partiyalari intonatsion tuzilishi jihatdan yangicha bo'lsa-da, asarning bosh qahramonlari partiyasidek yorqin va ifodali chiqmagan.

«Gulsara» partiturasining musiqasi seruslub, shakli zaif. Lekin bundan qat'i nazar operaning postanovkasi katta madaniy ahamiyatga molik voqea bo'ldi.

1951 yilda A. Navoiy nomli opera va balet teatrining «Gulsara» spektakliga Davlat mukofoti berildi.

A.Navoiy nomidagi opera va balet teatrida 1949 yil 25 dekabrda «Gulsara:» operasning premyerasi bo'ldi.

O'sha davrda M. Ashrafiyning yana ikkita operasi «Dilorom» (1958) va «Shoir qalbi» (1962) sahnalashtirildi.

«Dilorom» librettosi K. Yashin va M. Muhamedov tomonidan A. Navoiyning «Sabb'ai sayyor» dostoni mavzuida yozilgan. Operaning bosh qahramonlari — rassom Moniy va sozanda Dilorom bir-birlarini sevadilar, lekin go'zal changchini sotib olgan va Moniyni zindonga tashlagan shoh Bahrom sevishganlar baxtini poymol qiladi.

Muzikada qahramonlarning ishq dramasi o'zining nisbatan to'liq ifodasini topdi. Bosh qahramonlar ,milliy merosning noyob namunalari vositasida ifodalangan. Masalan, Moniy xarakteristikasida qadimiy lirik kuylardan



«Karimqulbegi» muhim rol o‘ynaydi. Moniyning har bir chiqishida mazkur kuy yangrab, qahramon leytemasi darajasiga ko‘tariladi.

Diloromning musiqali partiyasi ham shu emotsiya doirasida tuzilgan. Diloromning «Qalb yonar» (birinchi ko‘rinish) ariyasi, «Jonim mening» (ikkinchi ko‘rinish) romansi, Bahrom qasriga tushgan Dilorom qayg‘usini ifodalovchi musiqa (to‘rtinchi ko‘rinish), poymol etilgan sevgi haqidagi mungli qo‘shig‘i (oltinchi ko‘rinish; buni tasdiqlaydi. Dehqonlar shoh askarlari bilan ayni to‘qnashgan paytda paydo bo‘lgan Diloromning vokalizlari (uchinchi ko‘rinish) ifodalidir.

Operaning qisqacha mazmuni. Navoiyning «Sab‘ai sayyor» dostonida shoh Bahrom o‘zining go‘zal asirasi Dilorom («erkatoy shayton») ga shunchalik beriladiki, uni deb hatto davlat ishlarini unutadi. Butun bayon davomida muallifning asosiy fikri ta’kidlanadi: bazm, ov, aysh-ishratni mamlakatni boshqarishdan ustun ko‘rgan har qanday hokim qoralanishga loyiqdir. Dostonning oxirida Navoiy shohga dahshatli hukm chiqaradi: Sosoniylar davlatining qudratli hokimi shoh Bahrom, Dilorom va dabdabali hamrohlari bilan birgalikda botqoqlik va shafqatsiz» o‘ldirilgan hayvonlar qonidan tashkil topgan iflos joyga cho‘kib ketadi.

Spektaklning hashamatli, qiziqarli va tomoshabopligi, bosh partiyalarning iste’dodli talqini, chiroyli Sharq raqslari hamda partituraning yuqorida ta’kidlangan hislatlari «Dilorom» operasining ommaviy tomoshabinlar orasida shuhrat qozonishiga sabab bo‘ldi.

Faqatgina O‘zbekistonda emas balki butun O‘rta Osiyoda birinchilardan bo‘lib komik opera janrida asar yaratish kompozitor Salamon Yudakovga muyassar bo‘ldi. U kishi Hamza qalamiga mansub «Maysaraning ishi» (1959y) komik operasini yaratadi.

Operaning qisqacha mazmuni. Maysara xolaning kichkina haovlisiga yosh sevishtanlar Maysaraning jiyani podachi Cho‘ponali va go‘zal Oyxon uchrashadilar. Ikki yoshning hovlida uchrashganini qari Qozi va mirshab Xoji Darg‘a ko‘rib sharoitga xilof ish qilgani uchun Cho‘ponalini qamoqqa olmoqchi

bo'ladilar va shu bilan yosh Oyxon bilan uchrashmoqqa imkon tug'dirmoqchi edilar. Ular tomonidan yuborilgan soqchilar Maysara hovlisiga kirib keladi. Soqchilar Maysarani olib ketgach Qozi sandiqqa yashirib turgan Oyxonni o'g'irlab olib ketadi. Qozi zindonidan Maysara qutilish yo'llarini rejalashtiradi. Shu mahal Cho'ponali xolasini topib unga qochishni taklif etadi. Lekin Maysara to Oyxonni qutqarmaguncha hech qaerga bormasligini aytadi. Qozi Maysaraning oldiga tushib pul bilan Oyxonni gapga solishni taklif etadi. Maysara rozi bo'ladi. Qozi uyida Oyxon qayg'urib Qoziboboning yupatishlaridan achchiqlanadi. Qozi Maysaraga Oyxonning o'jarligini aytadi. Maysara Oyxonga o'z maxfiy rejalarini aytib unga Qozi bilan uchrashishga va Oyxon Qozining hamma shartlariga rozi bo'lishini tushuntiradi.

Maysara o'z hovlisida «ulug' mehmonlarni» kutishga hozirlik ko'radi. Birinchi bo'lib Qozi keladi va hali o'tirishga ulgurmasdan hovli eshigi taqillaydi. Maysara Qoziga jiyani kelganini aytadi va qo'rqib turgan Qozi ustiga ho'kiz terisini tashlaydi. Shunday qilib Maysara Oyxonga «oshiq» bo'lgan Hidoyatxonga ayol ko'ylagini, Ho'ji Darg'aga un qopini ustiga yopadi. Xalq bu shariat peshvolari ustidan kuladi va opera Maysaraning donoligidan, ikki yosh maqsadlariga erishganlari va xursandchilik bilan tugaydi.

«Maysaraning ishi» operasi bu haqiqiy komik (hajviy) janrda ijod qilingan asar bo'lib bu asarda kuychan, yengil, obrazlar xarakteriga mos keladigan musiqalar bastalangan. Ayniqsa Maysara obrazini ifodalaydigan, ba'zan o'zining oilasi davrasida mehribon xola, jonkuyar ayol, ba'zan, sharoitlarga ko'ra talabchan va o'tkir kishi, dovyurak, qo'rqmas, o'z so'zini ustidan chiqadigan shaxs sifatida operaning asosiy obrazi bo'lib turli musiqalar vositalari bilan ifodalab ko'rsatilgan. Maysara xola ijro etadigan kuy va qo'shiqlar Hamzaning «Hoy ishchilar» qo'shig'i asosida bastalangan. Chunki bu kuy Maysara obraziga xos bo'lib ayolning ichki qiyofalarini ochib tashlashga yordam berishini kompozitor S.Yudakov yaxshi bilgan. Masalan Maysaraning «Bolalarim hammasi yaxshi bo'ladi» nomli ariyasi so'zimiz isboti bo'la oladi. Shu bilan birga Oyxon, Cho'ponali, Qozi, Ho'ji Darg'a, Xidoyatxon obrazlari musiqalari ham asar mazmunini ifodalaydigan kuy va

qo‘shiqlar bilan tasvirlangan. Opera musiqalari orasida xalq kuy va qo‘shiqlari ham mustahkam o‘rin olgan. Masalan: «Oromijon», «Ushshoq», «Bilakuzuk», «Yor-yor» va boshqalar.

70-80 yillar davomida opera janri yana bir necha asarlar bilan boyidi va shular orasida bolalarga bagishlangan operalar-S.Boboyevning «Yoriltosh» va V.Xaetning «Etikli mushuk» asarlaridir.

Shunday qilib opera teatri va opera asarlari oxirgi vaqtda o‘z rivojini topadi va bu janr respublika musiqa san‘atining yuksalishiga salmokli hissa qo‘shadi. Bolalar uchun yozilgan va sahnalashtirilgan o‘zbek operalari ko‘p emas. Bular – Sabir Boboyevning ” Yoriltosh”, Sayfi Jalilning ” Malikai ayyor” , va Avaz Mansurovning ” Hayvonlar sultoni” operalaridir.

«Maysaraning ishi» operasining premyerasi 1959 yil 9 yanvarda bo‘ldi.

60- yillar oxiri — 70- yillar boshida respublika . musiqali teatrga yosh kompozitorlarning qiziqishi tobora ortib bordi. Opera ijodiyotida R. Hamroyev, U. Musayev, N. Zokirovlar ko‘rinarli natijaga erishdi.

R. Hamroyevning «3ulmatdan ziyo» operasi librettosini revolyutsiyadan oldin Turkiston hayotini aks ettiruvchi Oybekning «Qutlug‘ qon» romani motivlari asosida Turob To‘la yozdi. Libretto boshdan o‘tgan xotiralarning sahnadagi voqealar bilan zanjirsimon bog‘lanishidan iborat. Birinchi ko‘rinish muqaddima funksiyasini bajaradi: chor qamoqxonasining toshli yerto‘lasida rus revolyusioneri Petrov va o‘zbek batragi Yo‘lchi azob chekmoqda. Io‘lchi hikoyasi keyingi besh ko‘rinish mazmunini tashkil qiladi. Bularda boy va uning oilasi kechirayotgan hashamatli hayot hamda uning batraklarining tutqun va ogir mehnatini ko‘rsatuvchi ko‘rinishlar bnr-biri bilan almashib keladi. Yettinchi ko‘rinish yana tomoshabinni endi Yormat bilan ko‘paygan qamoqxona kamerasiga qaytaradi. Sakkizinchi va to‘qqizinchi ko‘rinishlar — xalq qo‘zg‘oloni.

Operaning bosh qahramoni—sodda qishloq yigiti Yo‘lchi ish qidirib shaharga, boy tog‘asi Mirzakarimboynikiga kelib, uning batragi bo‘lib qoladi. Boyning xizmatkori Yormatning qizi Gulnorni sevib qolgan yo‘lchi unga uylantirib qo‘yish to‘g‘risidagi tog‘asining soxta so‘ziga ishonadi. Asta-sekin Yo‘lchining ko‘zi

ochiladi. U boyning qizi Nurining fahsh yo‘liga boshlagani va surbetligini ko‘radi, uning o‘gli — qo‘rqoq, ishyoqmas Salimboyvachcha bilan to‘qnashadi. Gulnorni o‘g‘irlashda ayblangan Yo‘lchi (aslida uni Salimboyvachcha o‘g‘irlagan) qamoqqa tushadi va bu yerda bolshevik Petrov bilan tanishadi va inqilobiy kurash yo‘liga kiradi. Qari boyga xotinlikka berilgan va uning bolalari tomonidan zaharlab o‘ldirilgan sevgilisi Gulorning qabri ustida Io‘lchi xalq qo‘zg‘oloni bayrog‘ini ko‘taradi.

Ayrim kamchiliklariga qaramay, «Zulmatdan ziyo» operasi o‘zbek musiqali teatrini rivojlanishida yangi bosqichdir. U katta mavzu dadillik bilan qo‘yilganligi, uning o‘ziga xos yechnishi, aptorning o‘sayotgan professionalizmn bilan xursand qildi.

Raqs san‘ati respublikamizda eng rivojlangan san‘at turiga kiradi. Topilgan qazimlardagi suratlarda, tarixiy manba’larda raqs san‘atini o‘zbek va tojik xalqlari orasida keng ommalashib borgani to‘g‘risida ko‘p ma‘lumotlarda aytib o‘tilgan.

O‘zbekistonda sahna-raqsi yoki balet janrini tashkil topilishida raqs san‘atining ustalari Usta Olim Komilov, Yusufjon-Qiziq Shakarjonov, Tamara Petrosyan, Mukarrama Turg‘unboyeva, Isaxor Oqilovlarning xizmatlari katta bo‘lib Toshkent raqs bilim yurtini tashkil qilib bu o‘quv dargohida ishlaganlar, yosh raqqos va raqqosalarni tarbiya qilishda salmoqli hissa qo‘shganlar.

30-nchi yillar davomida O‘zbekistonda o‘zbek musiqali teatrlarining rivoj topishi bilan bir qatorda balet san‘ati ham asta-sekin vujudga keladi. Lekin o‘zbek milliy kompozitorlarining yo‘qligi munosabati bilan birinchi o‘zbek balet asarlarini xalq og‘zaki ijodiyotlari asosida rus kompozitorlari yaratganlar. 1933 yilda kompozitor N.Roslavs birinchi o‘zbek baleti «Paxta»ni yozadi. Bu baletda milliylikning yo‘qligi, asar mazmuni yuzaki ekani, hayot talabiga javob beraolmagani tufayli asar bir-ikki marotaba sahnaga qo‘yilib tezda sahnadan tushadi va qayta qo‘yilmadi. Ikkinchi o‘zbek baleti 6 yildan keyin, 1939 yilda ijod qilinadi. Bu baletni F.Tal «Shohida» nomi bilan sahnaga qo‘yadi. Balet mazmunida bosmachilarga qarshi kurash mavzui turar edi. Lekin bu balet ham

o'zbek milliy musiqalaridan uzoq turganligi munosabati bilan sahnadan tez orada tushdi. 1936 yilda Toshkentda raqs bilim yurti ochiladi va bu o'quv dargohi respublikamizda raqs san'atini rivojlantirishda katta xizmat qildi.

1940 yilda kompozitor Ye.Brusilovskiy tomonidan «Gulandom» baleti ijod qilinadi. Asarning adabiy mazmunini Tamaraxonum va M.Uyg'ur yozganlar. Bu balet ham tarixiy voqealar asosida dunyoga kelgan. Xorazm xonligida go'zal raqqosa Gulandom ismli qizning hayoti, sevgilisi Baxtiyor bilan xon zulmiga qarshi kurashganliklari va asar oxirida qahramonlar va xalq g'alabaga erishganligi to'g'risida batafsil so'z yuritilgan. «Gulandom» baleti sermazmun, milliy koloritlarga boy, ikki yo'nalish-yevropa raqs yo'nalishi va milliy o'zbek raqs yo'nalishlarini o'z atrofiga olgan va bu asarni sahnalashtirishda xalq raqs san'atining ustalari Usta Olim Komilov, Tamaraxonum, I.Arbatov va V.Gubskayalarning mehnatlari ko'p bo'lgan. Asarda juda ko'p xorazm xalq kuy va qo'shiqpari, o'zbek folklori, sho'x va o'ynoqi musiqalar asar mazmunini yoritishda xizmat qilganlar. «Gulandom» baleti oldingi ikki baletlar «Paxta» va «Shohida» baletlariga nisbatan bir necha yillar sahnaga qo'yilib undagi musiqalar hozirgacha konsert dasturlaridan joy olgan.

Urushdan keyingi yillar davomida balet janri ko'p o'zbek kompozitorlarini diqqatini o'ziga tortdi.

Manas Leviyevning «Suhayl va Mehri» baletini biz bir necha yillar davomida A.Navoiy nomli Toshkent opera va balet teatri sahnasida ko'rdik. Georg Mushelning «Balerina» («Gulnora») baleti ham kolxoz hayoti to'g'risidagi asar sifatida juda ko'p yillar davomida sahnada ijro etildi.

1956 yilda G.Mushelning «Tufelka Din» yoki boshqa nom bilan bu balet «Baxt guli» («Svetok schasty») bo'lib sahnalashtirildi. 1957 yilda D.Zokirov va B.Giyenkolarining «Oyniso», 1960 yilda Ikrom Akbarovning «Orzu» («Mechta») va G.Mushelning «Kashmir qo'shig'i» baletlari sahna yuzini ko'radi.

1964 yilda B.V. Brovtsinning «Semurg'» baleti, B.Zeydmanning «Kulguchi inson» (V.Gyugo asari «Chelovek kotoriy smeyotsya» romani asosida), «Quyosh va Ajdaho» baletlari ijod qilinadi. Oxirgi yillarda balet janridagi asarlar yana ham

boyidi. «Hind dostoni», «To‘maris», «Quyoshga ta‘zim» va «Xumo» shular jumlasiga kirib, kompozitorlardan Ulug‘bek Musayev, Rustam Abdullayev, Anvar Ergashevlarning xizmatlari katta bo‘lgan.

Yuqoridagi o‘zbek baleti to‘g‘risidagi fikrlar O‘zbekiston kompozitorlarining shu janrga bo‘lgan ijodiy qiziqishlaridan darak beradi. Shu janrda bo‘lgan kamchiliklar, ayniqsa adabiy izlanishlardagi noaniqlik, sifatsizlik balet asarlaridagi chiroyli musiqalarni ham sahnadan chetlanishiga asos bo‘ladi. Shuning uchun kompozitorlarning o‘zlari ham adabiy izlanishda dramaturg bilan birgalikda hamkorlik qilishlari lozim. Ana shu kamchiliklar bartaraf etilsa, o‘zbek balet janri kelgusida barkamol janrlar qatoriga kiradi.

## **I.2. Opera va balet janrlari o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda muhim vosita sifatida**

Jahondagi eng buyuk musiqa janrlaridan bo'lmish opera san'ati o'zbek xalqining ham turmush madaniyatiga kirib kelishi, jahon xalqlari o'rtasida o'ziga yarasha obro'-e'tiborini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Opera-lotinchacha so'zdan olingan bo'lib, mehnat maxsuli, asar degan ma'noni bildiradi. Opera qorishma (sintetik) janr hisoblanadi, u o'zida bir necha san'at turlarini mujassam etadi: unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at va raqs san'ati shakllari yaxlit saxnaviy jarayonda uzviy bog'lanadi. Lekin musiqa ular orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Operaning adabiy asosi- librettodagi voqealar musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, avvalo vokal musiqa shakllarida gavdalantiriladi. Qahramonlarning hissiy kechinmalari asosan yakkaxon xonanadalar ijrosidagi ariya, kavatina kabi tugal musiqa lavhalarida o'z ifodasini topadi.<sup>4</sup> Turli vokal ansambl (duet, trio va boshqalar) larda qahramonlarning o'z aksini topadi. Xor esa ro'yberayotgan voqealarning izohlovchi vositasi vazifasini bajaradi, uning yordamida xalq hayoti lavhalari gavdalanadi. Operada orkestr ham katta o'rin egallaydi: vokal shakllarga jo'r bo'ladi, mustaqil cholg'u qismlarda vaziyatning mazmunini ochib beradi. Operaning tuzilishi uning g'oyaviy maqsadiga, syujet xususiyatlariga va uslublariga hamda kompozitorning ijodiy tafakkuriga bog'liq.

O'zbekistonda opera janri XX asr boshida o'zbek musiqali dramasining rivoji asosida, shuningdek chet el mumtoz operasining ta'sirida yuzaga keldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Toshkentda gruzin, italyan, tatar, rus va ozarbayjon opera truppalari gastrolga kelgan. 1918-yildan Rus opera teatri o'z faoliyatini boshladi

---

<sup>4</sup> Yuldasheva N. Raxmatova N. O'zbek musiqa adabiyoti. "Iqtisod-moliya" Toshkent. 2010-yil. 69- bet.

1929-yilda Muhiddin qori Yoqubov tashabbusi bilan o'zbek musiqali teatri ishga tushdi. Uning repertuari asosan musiqali dramalardan iborat bo'lgan. Mazkur teatr sahnasida o'zbek tilida birinchi bo'lib M.Magomaevning "Nargiz", E.Brusilivskiyning "Er Targ'in" operalari qo'yildi. O'zbek opera va balet truppassi O'zbek musiqali teatri zaminida yuzaga kelib, o'z faoliyatini kompozitorlar S.Vasilenko va M.Ashrafiy yaratgan "Bo'ron" (1939) operasi bilan boshladi. Operaning prem'erasi 1939-yil 11-iyunda Toshkentda bo'lib o'tdi. K.Yashin librettosi. Bu asarning sahnalashtirilishi O'zbekistonning musiqali teatr hayotida katta voqea bo'ldi. Aynan, "Bo'ron" operasi premerasidan so'ng musiqiy dramatik teatr O'zbek Davlat opera va balet teatri nomini oldi.

"Bo'ron" operasida o'zbek xalqining chorizmga qarshi 1916-yilgi qo'zg'oloni davri o'z aksini topgan. Operaning bosh qahramoni xalq bo'lganligi sababli ommaviy sahnalar muhim ahamiyatga ega, har bir pardaning avjini xalq sahnalari tashkil etadi. Opera xorlarida kuy materialini ko'proq "statali" bo'lib, u xalq kuylari va Hamza qo'shiqlaridan olingan. Masalan, 1-pardadagi dehqonlar xori Hamzaning "Ishchi bobo", 2-pardaning fenal sahnasida "Biz ishchimiz" qo'shig'i yangraydi.

Asarda xalq musiqa ijodiyoti namunalari orqali gavdalantirilgan lavhalar muvaffaqiyatli chiqqan, biroq rechitativlarda musiqa va nutqni ohangga solishda nomuvofiqlik seziladi. Kompozitorlar mazkur asarda dramatik spektaklni musiqalashtirish uslubiga barham berdilar. Bu asarda musiqa jo'r bo'libgina qolmay, balki tashkiliy ahamiyat kasb etadi. Ariyalar oddiygina ijro etiladigan qo'shiq sifatida emas, balki qahramon obrazini yorituvchi vosita bo'lib keldi.

"Bo'ron" bilan deyarli bir vaqtda A.Navoiy dostoni asosida "Layli va Majnun" operasi ustida ham ish olib borildi. 30-yillarda "Layli va Majnun" musiqali drama sifatida namoyish etilgan edi. Tomoshabinlar e'tiborini qozongan bu asar qaytadan ishlanib operaga aylantirildi. Librettosiga juda ko'p voqealar kiritildi. Ushbu asar musiqa tuzilishiga ko'ra o'zbek musiqali dramasi an'alarini davom ettirdi. Operaning asosi yakka kuylashdan iborat bo'lib, ansambl va xorlar ham o'rin



egallagan. Orkestr ko'proq xonandalarga jo'r bo'ladi. Ariyalar og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa namunalariga asoslangan.

Operada musiqiy tavsiflar kam. Emotsional jihatdan bir rejali, mazmuni va musiqa rivoji sustroq bo'lganligiga qaramay, "Layli va Majnun" operasi tinglovchilar e'tiborini qozondi. Asar partiturasida mavjud bo'lgan qisman opera dramaturgiyasi elementlari o'zining milliy badiiy an'analar bilan uzviy bog'langanligi uchun qimmatlidir.

Shunday qilib, rus va o'zbek kompozitorlarining hamkorligida yaratilgan birinchi opera "Bo'ron" va "Layli va Majnun" o'zbek musiqa teatrining keyingi rivojiga asos bo'ldi, zamonaviy professional san'atning murakkab janrlarini o'zlashtirishga yordam berdi. O'zbek musiqali teatri o'zining o'n yillik (1929-1939) faoliyati davomida Musiqali etnografik ansambllardan musiqali nomerlarga ega dramatik spektakllar orqali musiqali drama hamda undan operagacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.<sup>1</sup>

Dastlabki o'zbek operalari o'zbek va rus kompozitorlarining ijodiy hamkorligi natijasida hamda O'zbekistonda ijod qilgan rus kompozitorlarining mahalliy mavzudagi ijodida rivojlandi. XX asrning 40-yillaridan boshlab o'zbek opera san'atining yo'nalishida yangi davr boshlandi. Birin-ketin turli mavzularda yaratilgan operalar paydo bo'la boshladi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida vatanparvarlik va tarixiy qahramonlik mavzularida A.Kozlovskiyning "Ulug'bek", O.Chishkoning "Mahmud Torobiy" operalari yaratildi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda ko'proq musiqali drama rivojlangan bo'lsa, 50- yillarning ikkinchi yarmida kompozitorlarning opera janriga qiziqishlari sezilarli darajada kuchaydi. Ushbu davrda yaratilgan musiqaviy sahna asarlarini xarakterlar ekanmiz, Birinchidan, dramaturgiya mazmuni voqelikning muhim tomonini aks ettirishga intilishi natijasida zamonaviy mavzuda keskin burilish kashf etgani, ikkinchidan esa o'zbek kompozitorlarining mustail ijod qila boshlanishi ko'zga tashlanadi. 1950-1967-yillarda teatr repertuari bir qator asarlar bilan boyidi. Sahnada namoyish etilgan operalar qayta ishlanib yangi tahrirda

yuzaga keldi. Masalan, M. Ashrafiy va S. Vasilenkoning "Ulig' kanal" deb nomlangan operasi yangi tahrirda "Baxt vodiysi" deb o'zgartirilib namoyish etildi. R. Glier va T. Sodiqovning "Gulsara", T. Jalilov va B. Brovtsinning "Tohir va Zuhra", G. Mushel va V. Uspenskiyning "Farhod va Shirin" kabi operalari shular jumlasidan.

1958-yildan boshlab yangi teatr mavsumi boshlandi, o'zbek kompozitorlari sahnalashtira boshladilar. Bular M. Ashrafiyning "Dilorom" (1958), T. Sodiqov, Yu. Rajabiy, B. Zeydman va D. Zokirovlarning "Zaynab va Omon" (1958), S. Yudakovning "Maysaraning ishi" (1959), S. Boboevning "Hamza" (1961), M. Ashrafiyning "Shoir qalbi" (1962), M. Yusupovning "Xorazm qo'shig'i", R. Hamroevning "Zulmatdan ziyo" (1966) operalaridir.

Mavzu va badiiy saviyasi har xil bo'lgan mazkur asarlar tomoshabinlar tomonidan turlicha qabul qilindai. Ba'zilar sahnadan tezda tushib ketdi, boshqalari esa teatr repertuaridan muhim o'rin egalladi.

50-yillarning oxiri o'zbek musiqali teatri tarixida yangi opera janrining paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. 1958-yilda kompozitor S. Yudakovning "Maysaraning ishi" deb nomlangan birinchi o'zbek hajviy operasi yaratildi. Bir qator davlat teatrlarida sahnalashtirilgan, chet ellarda ham qiziqish uyg'otgan mazkur opera librettosi H. H. Niyoziyning shu nomdagi pyesasi asosida S. Abdulla va M. Muhamedovlar tomonidan yozilgan.

"Maysaraning ishi" operasining qisqacha mazmuni.

Beva ayol Maysaraning hovlisida yosh sevisganlar uchrashadilar. Maysaraning jiyani cho'pon Cho'ponali va go'zal qiz Oyxon. Ularning o'yin kulgisini qari qozi bilan qo'riqchilar boshlug'i Hoji Darg'a ko'rib qoladilar. Qonun peshvolari cho'ponni shariat qonunlarini buzganlikda ayblab qamoqqa olib, shu orqali go'zal Oyxonga erishmoqchi bo'ladilar. Ular yuborgan qo'riqchilar Maysaraning hovlisiga bostirib kirib, Maysarani qamoqqa oladilar. Paytdan foydalangan qozi esa sandiqqa berkitib qo'yilgan Oyxonni o'g'irlab ketadi. Qozining uyida erto'lada Maysara qamab qo'yilgan. Cho'ponali uning yoniga kelib, bu erdan qochishni aytadi. Lekin Maysara Oyxonni ozod qilmaguncha bu

erdan ketmasligini aytadi. Erto'laga qozi kelib, Maysaraga qarzlaridan kechsa, uni ozod qilishga va'da berishini aytadi. Maysara rozi bo'ladi. Qozi Maysaraga Oyxonning itoatsizlik qilayotganligidan arz qiladi..Maysara qoziga qizni ko'ndirishini aytadi va shu bahona Oyxon bilan uchrashib, o'zining hiyla bilan tuzilgan rejasidan boxabar qilmoqchi bo'ladi. Maysara qoziga Oyxonni hamma narsaga rozi ekanligini aytadi. Maysaraning uyida "aslzoda mehmonlar"ni kutib olishga tayyorgarlik ketayapti. Birinchi bo'lib qozi keladi. U endi o'tirgan edi hamki, darvoza taqillab qoladi. Hayajonlangan Maysara kutilmaganda jiyani kelib qolganini aytadi, qo'rqib ketgan qozini Maysara ho'kiz terisiga o'raydi. Hiylagar Maysara Oyxonning sevgisiga boshqa da'vogarlar bilan ham shu tariqa yo'l tutadi: Hidoyat ayollar kiyimini kiyadi, Darg'a un solingan sandiqqa tushadi. Opera yoshlarning qo'shiq va raqslari bilan yakunlanadi. Barcha Maysara xolaning donoligiga qoyil qolib, uni sharaflaydilar. <sup>5</sup>

"Maysaraning ishi" operasining xalqchiligi, asl hajviyligi, badiiy vositalarining o'ziga xosligi uning nafaqat O'zbekistonda, balki chet davlatlarda ham shuhrat qozonishiga sabab bo'ldi. Kompozitor tomonidan operettaga aylantirilgan bu asar "Maysaraning nayranglari" degan yangi nom bilan Lodz teatri ( Polsha ) da namoyish etilgan.<sup>2</sup> (2. Asar 1975-yil 26-oktabrda namoyish etilgan.) Urushdan kiyingi yillarda birinchi bolalar operasi " Yoriltosh " yaratildi. Kompozitor S. Boboyev ushbu asarni yaratishda har bir bolaga tanish bo'lgan xalq qo'shiqlaridan foydalangan.

1970-80- yillarda o'zbek kompozitorlari opera janrini mavzu jihatidan boyitdilar. Ushbu davr ichida tarixiy " Mangulik" ( U. Musayev), "Fidoyilar"( S. Boboyev), zamonaviy- "Sadoqat" ( R. Abdullayev), atoqli shaxslarga bag'ishlangan –" Sug'd elining qoplani" ( I. Akbarov), " Zebiniso" ( S. Jalilov), " Alisher Navoiy" (M. Burxonov), shuningdek , kamer operalar- " Sohilda to'qnashuv" ( N. Zokirov), " Ona qalbi" ( X. Rahimov) va boshqa operalar

---

<sup>5</sup> Yuldasheva N. Raxmatova N. O'zbek musiqa adabiyoti. "Iqtisod-moliya" Toshkent. 2010-yil. 72-74 betlar.

sahnalashtirildi. 1970-80-yillar o'zbek opera tarixida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda yangi mavzular mavjuiga mos keladigan musiqiy – ifodaviy vositalarni qo'llash, o'z mualliflik tilini topish kabi omillar bilan bir qatorda, operalar mavzu jihatidan boyiganligini, kompozitorlarning o'z asarlarida ommaviy xalq kuylarini ko'chirmay, balki mustaqil original kuylar yaratganligini ko'rish mumkin.

Mustaqillik davri o'zbek operalarida janr talqini, mavzu va mazmun doirasi, yanada kengaytirilib, boyitildi. O'zbek kompozitorlari opera asarlarida orkestrning cholg'ulashtirish yo'llarida ham, vokal lavhalarida ham o'zbek xalq musiqa merosi hamda milliy ijrochilik an'analrini zamonaviy ifoda va texnik vositalar bilan uzviy bog'lashga ahamiyat bermoqda .

Bu davrda mumtoz operalar ( T. Sodiqov va Gliyerning ” Layli va Majnun” 1995-yil, M. Ashrafiyning ” Dilorom” 2001-yil)qayta ishlanib, yangicha talqinda namoyish etildi. Hozirgi zamon ijtimoiy muammolari ( N. Zokirovning ” Muxtoriyat” opera farsi, O. Abdullayevning ” Vafo” operasi ), uzoq o'tmish bilan bog'liq. ( M. Bafoyevning ” Buxoroyi Sharif” doston- teleoperasi), ulkan tarixiy shaxslar siymolari ( M. Bafoyevning ” Al-Farg'oniy”, A. Ikromovning ” Buyuk Temur”), falsafiy mavzular ( I. Akbarovning ” Ibtido xatosi” opera –oratoriyasi ) opera janrining keyingi rivojini belgiladi. Bular orasida A.Ikromovning ” Buyuk Temur” , M. Bafoyevning ” Al- Farg'oniy ” operalari Alisher Navoiy nomidagi opera na balet teatrida sahnalashtirildi.

Istiqlol yillarida kompozitorlar, baletmeysterlar va telerejissiorlar hamkorligida yangi- teleopera janri yuzaga keldi. M.Bafoyevning ”Buxoroyi sharif” ( H. Davron librettosi, 1997-yil) asari shu janrda yaratilgan bo'lib, Buxoroning 2500 yilligiga bag'ishlangan. Mazkur asar opera- doston deb atalib, 2 doston va 22 naqshlarga bo'lingan.

Opera badiiy o'qish, baxshi, solistlar, xo'r va o'zbek xalq cholg'ulari orkestr uchun yaratilgan. Asar Buxoro va uning obidalari , qolaversa Imom al- Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G'ijduvoni, ibn Sino, Ro'dakiy kabi buyuk allomalarini musiqiy ohanglar orqali madh etadi. Asar televideniya

mo'ljallangan bo'lib, video film janrida namoyish etildi. Operaning bosh obrazi – baxshi bo'lib, ma'lum musiqiy ohanglar orqali tasvirlanadi, har bir naqshni bir-biriga bog'lab beradi va opera bir yo'nalishda yaxlit tasavvur etiladi. Orkestr tarkibida chang- qobuz, sato, do'mbira va qonun cholg'ulari kiritilgan, ayrim cholg'ular ma'lum obrazlarga jo'rnavoz bo'lib ifodalangan. Masalan: baxshi obrazi chang- qobuz solosi jo'rqligida namoyish etilgan.1.(1. Ozbekiston san'ati, 129- bet)

Musiqali teatr ijodiyotining boshqa e'tiborli yutuqlaridan biri bolalar uchun yaratilgan asarlardir. Ushbu yo'nalishda N. Norxo'jayev, A. Ergashev, A.Mansurov, A. Ikromov, va boshqa kompozitorlar samarali ijod qilmoqdalar. Xususan, N. Norxo'jayevning "Burgutcha va toychoq", "Ona bolam deydi, bola onam deydi" musiqali spektakllari, A. Ikromovning "Olovuddinning sehrli shamchirog'i", A. Ergashevning "O'n ikki oy" musiqali ertagi. A. Mansurovning "Hayvonlar sultoni" operasi tinglovchilar tomonidan qizg'in qarshi olinmoqda. Yoshlarbop qiziqarli mavzular tanlab olinayotganligi jozibador kuy- qo'shiqlarning yangrashi zamonaviy estrada uslubiga xos ritmlarning ishlatilishi xushchaqchaq kayfiyat bag'ishlasa sahna harakatlarining tabiiyligi bilan tomoshabinni ishonтира olganligi mazkur asarlarga katta muvofaqqiyat baxsh etadi.

Balet (lotincha Ballo- raqsga tushaman)- asar mazmunini musiqiy xoreografik obrazlar vositasi bilan ifodalanadigan sahna san'ati turi bo'lib, o'zida san'atning dramaturgiya, musiqa, xoreografiya, tasviriy san'at kabi turlarini uyg'unlashtiradi, bu ыфтэфе turlarining hammasi alohida-alohida mavjud bo'lmay, baletning sintez markazi bo'lgan xoreografiyaga bo'ysunadi. Balet librettochi, kompozitor, baletmeyrter va rassom hamkorligida yaratiladi. Baletning dramaturgik asosi librettodan ищырдрфтшиб unda asarning asosiy mazmuni, g'oya, ziddiyat va xarakterlari aniq belgilanadi. Libretto ko'pincha adabiy asarga asoslanib, uni musiqa va xoreografiyada gavdalantirish imkoniyati hisobiga olinadi. Ssenariy asosida esa kompozitor balet musiqasini yaratadi. Uning izchilligi, sahna ko'rinishi, parda va nomerlarga bo'linishi ssenariyda ko'rsatiladi. Musiqa faqat ssenariyni ifodalabgina qolmay, balki musiqali obrazlarning mazmuni bilan uni

boyitadi. Balet musiqasi xoreografiyani yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Balet- musiqada yozilgan, xoreografiyada gavdalantirilgan drama.

Urushdan keyingi davr balet san'atida G.Mushelning "Raqqosa" baleti (1952-yil E.Baronovski librettosi) katta ahamiyatga molikdir. Baletda yoshlarning "katta" san'atga chiqishi, sahnaga intilishiga katta yoshli avlodning e'tiroz bilan qarashi asos qilib olingan. Asar markazida dastlab qishloq havaskorlik to'garagining eng yaxshi raqqosasi, so'ng xoreografiya bilim yurtining talabasi Gulnora bu qarshilik osonlikcha yechilib voqelikka hikoya xarakterini baxsh etadi.

70-yillarning birinchi yarmida yaratilgan A.Kozlovskiyning "Tanovar" , M.Ashrafiyning "Sevgi va qilich", asarlari o'tgan yillarda yaratilgan baletlardan keskin farq qiladi. Bu kompozitsiyalar tarixiy-musiqiy jarayonda ko'p pardali baletda rivojlanishning simfonik tamoyillarini qo'llash yo'lini namoyon qildi.

80-yillar kompozitor va baletmeyslrlarning milliy balet yaratish borasidagi harakatlari kuchaydi. I.Akbarovning "Navro'z", R. Abdullayevning "Quyoshga ta'zim", U.Musayevning "To'maris" , kabi asarlari milliy baletimiz mavqeyini yanada ko'tardi.

O'zbek baletlarining dastlabki partituralarida folklor materiali syuita tamoyillarida mujassamlashtirilgan bo'lsa , oxirgi o'n yillikka mansub asarlarda xalq ijodi manbalarini erkinroq talqin etishga va voqeani musiqali sahna ifodasida zamonaviy usullarga фыщыдфтшиб spektakl musiqa dramaturgiyasining yaxlitligiga erishildi.

Istiqlol yillarida yaratilgan asarlarda milliylikni ifoda qilishning ijodiy doirasi asta-sekin лутпфнши borganini, voqeani aniqroq anglana boshlaganini kuzatish mumkin. Bu davrda milliy an'nalarga, xalqimiz tarixiga, o'rta asrlarda yashab ijod etgan buyuk allomalar hayoti va ijodiga e'tibor kuchaydi. Zamonaviy o'zbek musiqasining bu davrdagi yana bir asosiy xususiyati milliy merosimiz, adabiyotimiz, tasviriy san'timizning boy an'analariга ыкщоффе etadilar. Bu borada yangi sahna asarlari, jumladan M.Bafoyevning "Buyuk ipak yo'li" Shou baletida tasviriy san'at , musiqa, plastika,chiroq bezaklari vositalari orqali o'rta asr sharq davlatlarining mushtarak obrazi yaratildi. Ayni shu davrda turli janrlar mushtarkligi natijasida

yangi shakldagi asarlar paydo bo'ldi. M.Bafoyevning "Zardo'shtiylar marosimi" balet- oratoriyasi bunga misol bo'la oladi. M.Bafoyevning "Nodira" (1991), "Ulug'bek" (1992), " Moziydan nur" (1995) telebaletlari "Tanovar" xalq raqs teatr –studiyasi tomonidan milliy raqslari va xalq xoreografiya uslublarida tayyorlangan ишэдишб katta qiziqish uyg'otadi. Гыриг baletlarning ayrim lavhalari videokliplar tarzida, shuningdek, ommaviy tomoshalarda namoyish etildi.

1997-yilda A.Navoiy nomidagi teatr sahnasida birinchi o'zbek komik baleti S. Yudakovning "Nasriddinning ishi" sahnalashtirildi. Yumoristik asosga ega bu asar xoreografiyaning ham komik tabiatini belgilab berdi. Spektakl an'anaviy xalq komediyasi uslubida yaratilgan. Uning barcha obrazlari muayyan qiyofalar-niqoblar sifatida talqin etilgan. Bunda tarozuning pallasi goh aqlli va tadbirkor Nasriddin tomon og'adi. Xoreografiyaning ifoda vositalari miqiyosida kechinmali lirik monologni ham, kulgili duetni ham, yorqin va bo'yoqdor ommaviy sahnani ham uchratamiz.

Balet ijodiyoti uchun musiqiy rivojlanishida tahlil qilish va ana shu asosdagi musiqiy-sahnaviy konsepsiyaga intilish tamoyillari 90-yillarga xosdir.

Umuman, so'nggi o'n yillik shubhasiz, tomoshabinlarga quvonch va zavq olib kelganligi bilan O'zbekiston opera va balet teatri tarixidan joy oladi.

Xulosa qilib aytganda, opera janrida mazmuni talqin qilishda asosiy urg'u milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlarni tarannum etishga qaratildi.

## **II BOB.Maktabda opera va balet janrlarini tinglash va idrok etish madaniyatini o'rganish**

### **II.1. O'quvchilarni o'zbek va jahon kompozitorlarining yaratgan opera va balet asarlari bilan tanishtirish**

Dunyo bo'yicha olganda barcha musiqiy janrlarning eng yuqori cho'qqisi opera san'ati hisoblanadi.

Keyingi yillarda musiqa ta'limi va tarbiyasi dasturi hamda yangi darsliklaridan o'zbek kompozitorlarining davr ruhini aks ettiradigan yangi qo'shiqlari bilan bir qatorda, milliy musiqiy meros namunalari ham o'rin ola boshladi. Boshlang'ich sinflarda xalq musiqasi namunalari ( musiqiy fol'lor) ga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, 6-7-sinflarda maqom, doston mumtoz ashula kabi kasbiy an'anaviy musiqa namunalari ko'proq tavsiya etilgan. Ammo meros va zamonaviy milliy musiqaga asosiy o'rin berilganligini asrlar davomida shakllanib kelgan jahon xalqlari musiqa madaniyatining yuksak badiiy namunalari chetlab o'tish, deb tushunmaslik kerak. Aksincha, milliy musiqani jahon xalqlari musiqasi namunalari bilan taqqoslash asosida o'rganishgina ijobiy natijalar beradi.

Yevropa musiqa madaniyatining XVI asr oxirida qo'lga kiritgan yutuqlaridan biri- opera san'atining paydo bo'lishidir. Ijod ma'nosini anglatadigan bu ko'p qirrali ( sintetik) murakkab musiqa janri Italiyaning Florensiya shahrida musiqachi , shoir, rassom va aktyorlikni o'z ichiga olgan. "Kallerata" nomli san'atkorlar to'garagida tashkil topgan edi. Dastlab jiddiy opera ( opera seriya), keyinchalik uning negizida hajviy opera ( opera buffa) paydo bo'ldi. Birinchi jiddiy opera ijodkorlari taniqli shoir Ottavio Rinnuchchini, musiqachi Yakopo Peri va kompozitor Djulio Kachchinilar bo'lgan. " Cho'ri- beka" nomli birinchi buffa operasining muallifi esa yosh



kompozitor Djovanno Battist Pergolezi (1710-1736) edi. Sahna asari bo'lgan operaning musiqali drama, balet , aratoriya kabi boshqa sahna asarlari bilan yaqin umumiy xususiyatlari mavjud. Unda ham dekoratsiya (sahna bezaklari ), buttaforiya (turli grimm, kostyum va anjomlar) kabi teatr atributlari ishlatiladi. Opera uvertyura (cholg'u muqaddima), ariya (bosh qahramonlarining markaziy ashulalari), duet (ikki qahramonning birgalikda kuylashlari), trio, kvartet, kvintet(uch, to'rt, besh ishtirokchi qahramonlarning birgalikda kuylashlari) vokal ansambllar, xorlar, balet sahnalari kabi tarkibiy musiqa bo'laklari (qismlar)dan tuziladi. Operada rechitativ (oddiy so'z va gaplarni musiqiy ohangga solib kuylash) o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Shi xususiyatlariga ko'ra, opera boshqa sahna asarlaridan keskin farq qiladi.

Opera asta-sekin Italiyadan Fransiyaga, Angliya , Germaniya, Avstriya kabi mamlakatlarga o'tib, XIX asrda Rossiyada ham baland nufuzga ega bo'ldi.

A.Mansurov va D.Karimovalarning yangi 5-sinf musiqa darsligida o'quv yilining to'rtinchi choragi butunlay opera san'atiga bag'ishlangan. Bu chorakda 8 soat dars bo'lib, ularda opera san'ati, jahon opera san'atida italiyalik kompozitor Jizeppe Verdining "Aida", "Rigoletto", "Traviata", "Otello", fransiyalik kompozitor Jorj Bizening "Karmen", Avstraliyalik mashhur kompozitor Volfgahg Amadey Motsartning "Sehrlil fleyta", "Figaroning uylanishi", Pyotr Chaykovskiyning "Pikovaya dama", ("Toppon xonim"), "Yevgeniy Onegin", Nikolay Andreevich Rimskiy –Korsakovning "Qor qiz", "Sadko", "Shoh Sulton haqida ertak", "Oltin xo'rozcha", Mixail Ivanovich Glinkaning "Ivan Susanin", "Ruslan va Lyudmila" operalarining o'rni haqida qisqa ma'lumotlar berilgan. Shuningdek Muxtor Ashrafiyning ustози S.N.Vasilenko bilan birgalikda 1939-yilda yaratgan birinchi o'zbek operasi "Bo'ron", keyinchalik mustaqil o'zi yaratgan "Dilorom" operalari, Sulaymon Yudakovning "Maysaraning ishi" hajviy operasining o'zbek

musiqasi rivojidadagi o'rni ko'rsatib o'tilgan. "O'zbek musiqasida opera janri" deb nomlangan 4-dars mavzusi R.Glier va T.Sodiqovlarning "Layli va Majnun", R.Hamroevlarning "Zulmatdan ziyo", S.Boboevning "Hamza", "Fidoiylar", H.Rahimovning "Zafar", I.Hamroevning "Oyjamol", I.Akbarovning "Sug'd elining qoplani", M. Burxonovning "Alisher Navoiy", S.Jalilning "Zebuniso", M.Bafoevning "Umar Hayyom" kabi asarlari o'zbek operalariga bag'ishlangan.<sup>6</sup>

O'qituvchi o'quvchilarga opera san'ati haqida ma'lumotlar berib, ularning yuksak opera asarlari bilan tanishtirar ekan, avvalo, opera janrining o'ziga xos xususiyatlari, muallifi, bu asar yaratilgan davr, asarning mazmuni haqida ixchamgina hikoya qilib berishi lozim. Tinglash uchun tavsiya etilgan opera parchalari, asosan muqaddima(uvertyura) va ariyalar bo'lishi ma'qul. Chunki uvertyura simfonik opkestr ijrosidagi sof cholg'u musiqa bo'lishiga qaramay, u operaning asosiy musiqiy materialidan qisqartirib olinadi va tinglovchiga asar haqida nisbatan yaxlitroq tasavvur paydo qiladi. Masalan o'quvchilarni S.Yudakovning "Maysaraning ishi" operasi bilan tanishtirishda o'qituvchi operaning librettosi (so'z matni) S.Abdulla va M.Muhamedovlar tomonidan Hamzaning shu nomdagi asari asosida yaratilganligi, asarda aql-zakovatli, bama'ni va axloqi pok beva ayol Maysara puxta o'ylangan reja yordamida ochko'z qozi, badjahil mirshab Hoji Darg'a, axloqan buzuvchi qonunchi Hidoyatxonlarni laqillatganligi shahvatparastlarning zaif yurak torlarida o'ynab o'ta nopqulay vaziyatlarga solib, ularni xalq oldida kulgiga qoldirganligi va shu yo'l bilan yosh sevisganlar- jiyani Cho'ponali va uning sevgilisi Oyxonning baxtini saqlab qolganligini hikoya qilib beradi.

---

<sup>6</sup> "San'at yo'nalishlarida yoshlarni na'naviy-axliqiy tarbiyalash: izlanish, echim, va istiqbollar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Buxoro-2013-yil.70 - 71 betlar.

Opera uvertyurasini tinglashdan oldin muallif simfonik opkestr tarkibidagi cholg'u asboplariga qo'shimcha sifatida milliy musiqa asboblaridan: karnay, surnay, nog'ora kabi asboblar tembridan foydalangani, ko'pgina asosiy ariyalarni o'zbek xalq ohanglari asosida yaratgani, har bir qahramonga o'ziga xos musiqiy tavsif bergani sababli asar 40dan ziyod chet ellar sahnalarida muvaffaqiyat bilan qo'yilganligi e'tirof etiladi.

O'qituvchi o'zbek operalari bilan qiyoslash maqsadida chet el kompozitorlari operalaridan ham parchalar tinglashni tashkil etishi mumkin. Buning uchun Bizening "Karmen" operasidan uvertyura, Karmen ariyasi, Verdining "Rigoletto" operasidan Gertsogning qo'shig'i, Glinkaning "Ruslan va Lyudmila" operasidan uvertyura, "Chernomor marshi" kabi asarlardan foydalanishi mumkin. Bu asarlarni, asosan, magnit yozuvida, qisman o'qituvchi ijrosida namoyish etilsa bo'ladi.

Chunonchi, "Maysaraning ishi" operasini V.A.Motsartning "Figaroning uylanishi" operasi bilan solishtirib ko'rilsa, bu hajviy operalarda juda ko'p o'xshashliklarni kuzatish mumkin.

"Figaroning uylanishi" asarida aqlli va epchil xizmatkor yigit Figaro o'zining qaylig'i, go'zal cho'ri qiz Syuzannaga ko'z olaytirmoqchi bo'lgan badaxloq xo'jayin graf Al'mavivaning ustidan kulish uchun grafning xotini Grafinya Rozina bilan birgalikda yashirin reja tuzib Graf bilan uchrashuvga Syuzanna o'rniga uning kiyimida grafinyaning o'zini yuborgani, Graf qorong'uda tanimay o'z xotiniga Syuzanna deb xushomad qilib, saroy ahli oldida sharmanda bo'lgani "Maysaraning ishi" operasi librettosiga juda o'xshaydi.

Jahondagi eng buyuk musiqa yo'nalishlaridan bo'lmish opera san'ati o'zbek xalqining ham turmush madaniyatiga kirib kelishi, jahon xalqlari o'rtasida o'ziga yarasha obro'- e'tiborini yaqqol ko'rsatib turibdi.

O'zbekistonda dastlab opera san'atiga ustozlarimiz Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Sattor Yarashev, Nasim Hoshimov, Qo'rqmas Muhiddinov va boshqa ko'plab san'at darg'alari o'z hissalarini qo'shganlar. Dastlab O'zbekistonda yaratilgan ko'plab operalarning birinchi ijrochilari ham shular edi. Bir qator kompozitorlarimizning yaratgan operalari, o'zbek xalqining hayoti, turmush tarzi, milliy ma'naviyati va boy tarixini yorqin ko'rsatib bera olgan.<sup>7</sup>

Mustaqillikdan so'ng, ayniqsa yosh opera xonandalari uchun ko'p tomonlama imkoniyatlar berila boshlandi. Prezidentimiz tomonidan yosh iste'dodlar uchun ta'sis etilgan "Nihol" davlat mukofoti yoshlar uchun eng yuksak e'tibor hisoblanadi. Bundan tashqari, Nazira Ahmedova, Sulaymon Yudakov nomidagi ko'plab katta-yu kichik ko'rik tanlovlari yosh xonandalarni turli sinovlardan o'tkazib kelmoqda.

Opera xonandalari uchun eng zarur hisoblanuvchi ovoz kuchi, yashaydigan iqlim muhitiga ham bog'liqdir. O'z ijodiy kuzatishlarimiz natijasida shunga amin bo'ldikki, O'rta Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston hududida yashab ijod qilayotgan va ulg'ayayotgan yosh avlod kuchli va baquvvat, keng diapazon, chiroyli tembr va aql-zakovat bilan yuksalmoqda. Eng asosiysi yosh xonandalarning har biri o'ziga xos ovoz sohibi.

Hozirgi yosh opera xonandalari orasida dunyo sahnalarida o'z iste'dodlarini namoyish etib kelayotganlari ham kam emas. Ramiz Usmonov, Abdumalik Abduqayumov, Najmiddin Mavlyanov, Jenisbek Piyazov, Samandar Alimov, Rahim Mirzakamolov va bir qancha yosh ijodkorlar xalqaro ko'rik tanlovlari g'olibi va davlat mukofoti sovrindorelari hisoblanadilar.

---

<sup>7</sup> "San'at yo'nalishlarida yoshlarni na'naviy-axliqiy tarbiyalash: izlanish, echim, va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Buxoro-2013-yil. 110 - 111 betlar.

Xalqimizda "Ustozsiz shogird har maqomda yo'rg'alar" degan maqol bor. Har bir kasbni o'rganish tarixi bo'lgani kabi opera san'atining ham o'z maktabi bor. Dunyo bo'ylab eng ko'p tarqalgan italiya, fransuz, nemis va rus maktablari bo'lib, jahon opera yulduzlari mana shunday maktablarni mukammal o'rganganlar. Shuning uchun ham dunyo sahnalari ular uchun muntazirdir.

Bizning yosh opera xonandalarimiz uchun ham mana shunday maktablar zarur. Bunday maktablarni egallashda eng avvalo yosh xonandalarni opera vatani bo'lmish Italiya, bundan tashqari, Fransiya va Germaniya kabi shaxarlarga opera maktabini olib kelish uchun grantlar berilsa, yoshlar istedodi yanada oshgan bo'lar edi. Grant asosida o'qiyotgan talaba, opera maktabini, ya'ni asarni kuylash usullari, kuylash davomida asarning asl ma'nosini tinglovchiga yetkazib bera olish, asarni ichki his tuyg'ularini ko'rsatib berish kabi bilimlarni puxta o'rganib kelinishi va yosh xonandalarga o'rgatilishi O'zbekistonda opera san'atiga juda katta rivoj bergan bo'lar edi. Lekin bunga qaramay, biz o'z milliy opera maktabimizni rivojlantirmog'imiz darkor. Ustozlarimiz Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Sattor Yarashevlar o'zbek tilida yaratilgan opera, romans, xalq qo'shiqlarini mahorat bilan ijro etib, milliy maktabga asos solganlar. Ularning ijrolari ikki buyuk yo'nalishni o'z ichiga olgan, o'zbek ashulachilik an'analari va vokal ijro yo'li. Mana shu ikki yo'nalish birligidagi ijroyo'li opera maktabini asoslab beradi. O'zbek operalarini butun jahonga tanitish uchun ham milliy maktabimizni puxta o'zlashtirmog'imiz kerak. Buning uchun milliy musiqa boyligimiz bo'lmush katta ashula va maqomlar ijrosiga e'tibor berishimiz kerak.

Maqom ashulachilik yo'lini tahlil qiladigan bo'lsak, u yo'nalishni ham o'ziga yarasha katta qiyinchiliklari bor. Bunda ovoznii yo'lga qo'yish (postanovka), ijro mahoratini oshirish, ijro jarayonida qilinadigan nolalar va

yuqori notalarni qiynalмай ayta olish kabi ko'plab ijro usullari bor va bu usullarni opera xonandalari ham mukammal o'zlashtirishlari lozim. Bundan tashqari, Shashmaqom haqida ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Chunki o'z urf-odat va an'analarimizni unutmoq milliyligimizni uo'qotmoq hisoblanadi. Shuning uchun ham opera maktabimizni rivojlantirishga e'tibor qarqtishimiz darkor.

Shu maqsadda, yosh xonandalarga milliy maktabni keng ko'lamda o'rgatib borilishi va shu qatorda chet el maktablarini ham puxta o'zlashtirish zarurdir. Zero opera maktablarini puxta o'rgangan xonandalarimizni jahon sahnalari yuzini egallashi vatanimiz uchun faxr va iftixor hisoblanadi. Chunki ustoz san'atkorlarimiz shunday iste'dodli bo'lganlarki hatto jahon opera yulduzlari ham ularni san'atiga tan berishgan. Sattor Yarashev boshchiligidagi bir guruh san'atkorlar Moskva shahriga gastrolga borishadi. Shahar teatrlaridan birida o'z ishlari bilan yurgan Shalyapin to'satdan sahnada yangrayotgan ovozni eshitib, qadamlari sekinlashadi. Ichidagi qo'rquv aralash hayrat uni sahna tomon etaklay boshladi. Sahnada oppoq yaktak ustidan chopon, chopon ustidan esa belbog' o'ragan, boshiga qalampir do'ppi kiyib, qo'lida likopcha ushlab xonish aylayotgan Sattor Yarashevni ko'rib hayratdan yoqa ushlaydi va u bilan tanishish istagida oldiga boradi. Sattor Yarashevni quchoqlashdan o'zini tiya olmagan Shalyapin sahnaga qarab o'z muxlislari chalayotgan qarsaklardan faxrlanadi va Sattor Yarashevga qarab, "Siz bilan meni farqim shundaki, men o'zimni milliy yo'limda kuylayman, siz o'zingizning milliy yo'lingizda kuylaysiz, bizda boshqa farq yo'q"-deb aytgan ekan. Vaholanki Shalyapin sahnada kuylaganda mahobatli qandil titraganini voqeaga guvoh bo'lganlar aytib berishgan.

Darhaqiqat yurtimizdan shunday buyuk insonlar etishib chiqqanki ular bilan faxrlanmay ilojimiz yo'q.

Xulosa qilib aytganda o'quvchi yoshlarni jahon xalqlari musiqa san'atida etakchi o'rinlardan birini egallagan opera musiqasi bilan tanishtirish va bu san'atning go'zal musiqiy xususiyatlaridan bahramand qilishning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir.

## **II. 2 5-7 sinf o'quvchilariga o'zbek kompozitorlarining opera va balet asarlaridan namunalar tinglash, kuylash va idrok etishni o'rgatish metodlari**

O'quvchilarni musiqiy bilimni boyitishda musiqa tinglash madaniyatini o'zlashtirib unga rioya qilishlari maqsadga muvofiqdir.

5-7 sinf o'quvchilarini ya'ni 12-15 yoshdagi o'smirlilik davri psixologiyasi o'zining jo'shqin rivojlanish, xulq atvorida keskin o'zgarishlar yuz berishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham psixolog olimlar bu davrni o'tish davri ya'ni bolalikdan kattalar safi tomon ulg'ayib borish davri deb hisoblaydilar.

Musiqa o'qituvchisi bu yoshlardagi o'quvchilar bilan ish yuritishda, muloqotda ular bilan musiqa mashg'ulotlarini olib borishda va ayniqsa, ularni kuylatishda bu psixalogik o'zgarishni hisobga olishi tavsiya etiladi.

O'smirlarda yosh o'tishi bilan yangi-yangi hussiyotlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ular jismoniy jihatdan tez rivojlana boshlaydilar va bu o'sish ularning hayotda o'z- o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlab boradi va u shaxs o'z -o'zini anglay boshlaydi, axloqiy tushunchalar haqida mustaqil fikr yurita boshlaydilar.

Akademik.L.P. Pavlovning ta'limotiga ko'ra, o'smirlilik yoshidagi bu o'zgarishlar uning butun organizmi bo'ylab sodir bo'ladi. Bunda individning intensiv ravishda o'sib borishni boshqarishda bosh miya pusti asosiy yetakchi vazifani bajaradi.

Katta yarim sharlardagi nerv hujayralari ma'lum darajada tezroq yetiladi. Miyada sodir bo'layotgan o'sish jarayonlarini bir- biri bilan bog'lovchi nozik torlar yanada tezroq rivoj topib puxta bir holatga keladi.

Musiqa vositasining eng muhim jihati ham shundaki, u barcha organizmdagi o'sish jarayonini boshqaruvchan bosh miya yarim sharlari faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkaza oladi. Musiqa sadolari yarim sharlarida



joylashgan asab to'qimalarining tub-tubida joylashgan boy energiya zahirasi o'z ta'sirini o'tkaza oladi va o'smirlarni his hayajonga sola olish imkoniga ega bo'ladi. Psixolog olimlarning ta'kidlashlaricha, bu zahira qatlamlariga faqat musiqa vositasida ta'sir etish mumkin. Asab hujayralari va ularni bir-biri bilan bog'lab turuvchi neyronlar mantiqiy, abstrakt va umumlashgan tafakkuz jarayonini keltirib chiqaradi.

Ayni paytda po'st va po'st usti zahiralari o'rta darajada harakatga keltirish oqibatida paydo bo'ladigan jizakillik, o'zi bilarmonlik va qo'polliklarini tormozlashtirib ularni mo'tadil holatga keltira olishga ham alohida etibor berib borish tavsiya etiladi.

Shuni hisobga olish kerakki, qo'zg'alish protseslari tez sodir bo'lganidek u tezda o'tib ham ketadi. Bu jarayon anchagina murakkab jarayon bo'lib, u yosh o'tishi bilan mu'tadil holatga keladi. Asabiylik holatida yo'l qo'ygan kamchiliklaridan o'zlari keyinchalik uyalib ham yuradilar.

O'smirlarda suyak va muskullarining o'sishida farq sezila boshlaydi, gavda suyaklarining yiriklashuvi natijasida o'smirlarning harakatlanish tezligi susaya boradi. Ular qo'polroq harakat qiladilar. Chaqqonlikni ma'lum darajada yo'qotadilar.

O'smirlik yoshida o'pkaning hajmi anchagina kengayadi va natijada nafas olish tezlashadi. Barcha harakatlarni bajarish va ayniqsa, qo'shiq kuylash jarayonida bunga alohida etibor berish zarur bo'ladi. O'ta darajada katta organizmi cho'zib, nafasni tiqiltirib qo'yish o'smirlar uchun zarurdir.

Yurak faoliyatining intensiv tezlashuvi ham ularni toliqtirib qo'yishi mumkin.

O'smir yoshlarda yuz beradigan o'zgarishlarning eng muhimi, bu ularda mutatsiya holatining yuz berishidan iboratdir. O'smirlik yoshida bo'ladigan o'zgarishlar ularning ovoz paylariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ovoz paylari va ovoz pardalari bu o'g'il bolalarda ikki hissa bo'ladi.

Ma'lumki, torlar qanchalik uzun bo'lsa, undan shunchalik past ovoz hosil bo'ladi. Ovoz paylarining ikki hissa o'sishi ham ularning ovozlari ikki hissa pasaytirishga olib keladi. Ovoz pardalarining yo'g'onlashib borishi ham ulardagi ingichka nafis ovoz o'rniga qo'pol, yo'g'on ovozning paydo bo'lishiga olib keladi.

Mutatsiya bu ovozning bir turdan – ikkinchi turga o'tish jarayonidir. Endi o'g'il bolalarning ovozida erkaklarga xos yo'g'on, qo'polroq ovoz hosil bo'ladi. Ammo u darrovgina yuz beradigan hodisa bo'lmay ikki-uch yil davomida ba'zan ingichkalashib, ba'zan yana yo'g'onlashib turadi. Yettinchi sinfning oxirlariga borib ovoz endi anchagina mustahkam, o'zining yangi holatiga o'tgan bo'ladi.

Qiz bolalarda mutatsiya davri deyarlik sezilmasdan o'tishi mumkin. Ularda ham ovoz paylari qisman uzayadi va ovoz pardalari yo'g'onlahsadi. Natijada, ilgari bolalarcha ovoz o'rnini endi katta qizlarga xos yo'g'onroq, kuchliroq ovoz egallaydi.

O'g'il bolalarda ham, qizlarda ham mutatsiyaning o'tayotganligini ularning hiqildoq atrofidagi paylarining, pardalarning qizarib qolishidan bilib olish mumkin.

Ayni shu o'smirlilik yoshidagi o'quvchilarni, loringologlar tez-tez ko'rikdan o'tkazib turishlari tavsiya etiladi.

5-7 sinf o'quvchilarining ovozi musiqa o'qituvchisining ham qat'iy nazoratida bo'lishi kerak. Ayrim metodist o'qituvchilar qo'shiq aytirishni mutlaqo taqiqlab qo'yishni maslahat beradilar. Ammo bunga mutlaqo qo'shib bo'lmaydi. Ularni doimiy nazorat ostida ushlab borish va zarur bo'lgan hollarda, loringolog maslahati bilan ularni kuylashdan ozod qilishni tavsuya etiladi.

Musiqa o'qituvchisi o'smirlarning ovozlari tekshirish jarayonida ham mutatsiyaning yuz berayotganligini hisobga olib borishlari lozim

bo'ladi. O'g'il bolalarning ovozlarida bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatib borish natijasida ularni ovoz diapazonlari endi katta oktava "lya"- "si" notasidan to 1- oktava "mi"- "fa" notalarigacha bo'lgan oraliqni o'z olishlari mumkinligini kuzatdik. Ayni paytda ularni differensial guruhlariga ajratib olishni ham tavsiya etadilar.

2 ovozdagi o'g'il bolalar katta oktava "lya" pardasidan 1-oktava "re" gacha bo'lgan oraliqda kuylay olishlari aniqlandi.

1 ovozdagi o'g'il bolalar esa "do" kichik oktavadan "re" gacha bo'lgan oraliqda kuylay olishlari mumkin.

Qizlar ovozi esa deyarlik o'zgarmaganligi uchun, ilgarigiday skipka kalitida yozilaveradi va skripka va al't singari o'zgartirmasdan kuylanadi.

Soprano, partiyasining ovoz diapazoni "si" kichik oktavadan 2-oktava "fa" gacha bo'lgan oraliqni o'z ichiga oladi.

Al't partiyasi esa "lya" kichik oktavadan 2-oktavagacha bo'lgan oraliqda kuylaydi.

Ayni paytda shuni hisobga olish lozimki, ularning ovozlari hali yetilib, qotmagan bo'lganligi uchun o'ta darajadagi past va ayniqsa o'ta darajadagi baland tovushlarda kuylatmaslik lozim.

Shunday ovozlar ham borki, ularning ovoz diapazonlari 4-5 notadan nariga o'tmaydi. Dars jarayonida ular bilan alohida mashq olib borishning imkoniyati bo'lmasada, ular bilan ba'zi-ba'zida alohida ish olib borish lozim bo'ladi.

Musiqqa o'qituvchisining muhim ishlaridan biri barcha o'quvchilarga issiq va sovuq taomlarini iste'mol qilishdan saqlanish loziligini maslahat berib borishdan iboratdir.

Yangi paydo bo'lgan ovozlarda haddan tashqari ko'p kuylash, qattiq baqirish ham ovozning buzilib qolishiga olib kelishi mumkin.

O'quvchilarning musiqa madaniyati darsiga bo'lgan qiziqishini o'stirish uchun dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni to'g'ri tashkil etish davr talabidir. Musiqa ta'limi jarayonini nazariy jihatdan tahlil qilish, ilg'or muallimlar tajribalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, darsni turli bosqichlarga bo'lib o'tish o'zini ijobiy natijalarini beradi.

1.O'quvchilarni darsga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'quvchilarda hayrihohlik munosabatlarini hosil qilinishi, bajariladigan ishlar bilan tanishtirishni yakka tartibdagi va jamoa vazifalarini belgilashni ta'minlaydi.

2.O'quvchilarni bilim va malakalarini mustahkamlash bilan bog'liqdir. Bunda o'quvchilarning mustaqil fikrlay olishlari uchun bilimlari doirasini kengaytirishga, mavzuga ijodiy yondashish ko'nikmalarini o'stirishga, fikrlash qobiliyati faolligini takomillashtirishga erishiladi.

3. Eshitish, idrok etishi orqali bilimlar darajasi aniqlanadi. Shu jarayonda o'quvchilarning idrok etish qobiliyatlari tekshirib ko'riladi. O'quvchilarni musiqa darsiga moslashish alomatlarini shakllantirib borishga ham e'tiborni qaratmoq lozim.

Darsning boshlanish qismida quvnoq sho'x, jozibali biror musiqa asari tinglash tavsiya etilsa, bu musiqa o'quvchilarda ko'tarinkilik kayfiyati hosil qiladi. Eng muhimi darsning sifatli, qiziqarli o'tishiga yordam beradi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim darajasini o'rganish hamda oldingilari bilan taqqoslab borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijod o'quvchilarni xotirasini aktivlashtiradi, fikrlashni, kuzatuvchanlikni, maqsadga intilishni rivojlantiradi.

Musiqiy ijodkorlik-fikrlash bilan birga emotsional aktivlikni hamda tez bir qarorga kelish qobiliyatlarini shakllantiradi. O'quvchilarni ijodi bu mustaqil faoliyat bilan bog'liqdir. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar ijodida asosan musiqiy amaliyotni o'rganish va qiziqtirishda namoyon bo'ladi.

Ijodiy faoliyatga tayyorlash uch yo'nalishda kuzatiladi.

1. Hayotiy musiqiy taassurilar bilan boyitishda. Masalan: Ertaklar, she'rlar, milliy an'analar, kitobdagi asar qahramonlari va musiqiy o'yinlarni o'tkazishda asosiy negizni yaratadilar.

2. Bu o'quvchilarni ijodiy harakat usullari bilan tanishtiradi. Bu maqsadda ularga sodda asarlar, qo'shiqlar, ritmik usullar bilan ohang talaffuzlari beriladi. Musiqiy ijod namunalaridan: Masalan, asarga ritmik kirish qismini yaratish ( O'rganiladigan qo'shiq asarlariga kirish qismi berilishi mumkin bu ijodiy harakat qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.)

3. Bunda oldin o'qituvchi ko'rsatadi, keyin hamkorlikda qo'shiq tahlili va maqsadga yo'naltirilgan ijro rejasi aytiladi. Bu yaxshi tanish qo'shiqlar orqali tushuntiriladi. Bir xil va har xil ohang har xil musiqiy obraz va musiqiy xarakterlarni ifodasiga bog'liq bo'lgan asarlar orqali o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash katta ahamiyatga egadir. Masalan: ohang kuylarining variantlarini yaratish uchun, o'quvchi talaffuzi, ritmik tajriba va ohanglarni mavjudligini tushunishi lozim ( she'r matni, musiqaning ritmik tuzilishi, ohang tuzilishi)

4. O'quvchilarda ijodiy faoliyatlarini shakllantirishda ijodiy topshiriqlar katta rol o'ynaydi. Buni bajarish ko'proq o'qituvchiga bog'liqdir. O'qituvchi ijodiy topshiriqlarni taklif etishda o'yin formasini qo'llaydi. Topshiriqni bajarishda o'yin qoidalari va mazmun aytib turiladi. O'yin darsda emotsional hozirjavoblikni tashkil etishi kerak. Bu juda muhim bo'lib, o'quvchilarda ijodiy yo'nalishlarini shakllantiradi.

Bolalar uchun operalar ( 5-sinfda o'tish uchun)

Ushbu dasrda " Blits"1. O'yin texnologiyasi qo'llaniladi. O'zbek tilida bolalar uchun yozilgan operalar " Yoriltosh", " Malikai ayyor", " Hayvonlar sultoni" dir.

Shunday misol sifatida Avaz Mansurovning B. Isroil va F. Safarov librettosiga yozilgan – "Hayvonlar sultoni" operasning mazmunini o'qib beriladi. O'quvchilarga tarqatma materiallar tarqatiladi.

Prolog. O'rmon. Barcha hayvonlar to'planishib turadigan joy. Sho'x ohanglarda xirgoyi qilib o'tib ketayotgan quyonchalardan so'ng ertakchi bobo paydobo'ladi, u o'rmon tabiatini madh etadi. Shu o'rmonda yashaydigan jonzotlarni birma-bir tanishtiradi. Ular- Sher Sulton, Bo'ri, Quyon, Ayiq, Tulki-o'zlari haqida qo'shiqlar aytishadi. Ertakchi bobo tonglar otib, kunlar botib, bunda har kun hayot qaynashini, hech to'ymaslar- ochko'zlar faqat o'lja paytida yurishlarini aytadi va bir kun bo'lib o'tgan voqeani tomosha qilishga taklif etadi.

Voqea. Ikki och bo'rining janga avjida. Tulki paydo bo'lib, bo'rilar talashayotgan o'limtik kiyikni olib qochmoqchi bo'ladi. Bo'rilar sezib qolib tulkini haydab yuborishadi va jangni davom ettirishadi. Tulki alamkashlik qilib hayvonlar sulroni – Sher Sultonni yetaklab keladi. Sher Sulton ikkala bo'ri arzlarini tinglab, ajrim qiladi. Talashganlar tarqalishib, Sher Sulton pana joyda dam olishga yotadi.

O'ynab – quvnab quyonchalar kirib kelishadi. Ayyor tulki yana paydo bo'ladi. Quyonchalardan biri " Men botirman ! Bokschiman! Hattoki Sher Sultonni nakaut qilib qo'yaman!" deb, maqtanib qoladi. Tulki paytdan foydalanib, hayvonlar sultoniga o'xshatmaqilayotgan quyonni Sher Sultonga ro'para qilib qo'yadi. Botirligi puchga chiqadi. Sher Sulton o'zining yengilmasligidan, salobatidan mamnun bo'ladi. ..

Kutilmaganda o'rmonda to's- to'polon boshlanadi. Hamma hayvonlar o'zlarini yo'qotib qo'yishgan ular Sher Sultonni ham pisand qilmay qolishdi, hukmdor hayron.... Hayvonlar tarqalgach, Sher Sulton panada berkinadi. Baralla qo'shiq aytib, Odam kirib keladi. Sher Sulton ustiga to'r tashlaydi. Hayvonlar yordamida ham Sher to'rdan ozod bo'la olmaydi. Yengilganini bo'yniga olib, " Ne sharting bor!" deb so'raydi. Odam – do'stlik, madh etib raqs tushishadi, qo'shiq aytishadi:

"Do'stlik bo'lsin!

" Tinchlik bo'lsin!"

O'quvchilarga balet janri musiqalaridan namunalar tinglatish ham yaxshi natijalar beradi. Masalan "Raqqosa" baletini musiqasini o'quvchilarga tinglatmoqchi bo'lsak avvalo ularni ushbubaletning mazmuni bilan tanishtira "Raqqosa" baletining qisqacha mazmuni. Gulnora go'zal raqsga tushishi va paxta yig'im-terimiga ilg'orligi bilan o'z kolxozida tanilgan. Hosil yig'imi munosabati bilan uyushtirilgan bayramda u xoreografiya bilim yurti talabalari bilan uchrashadi. Yosh artistlarning san'ati Gulnorani maftun etadi. O'z o'rnida mehmonlar Gulnorani iste'dodini ko'rib, uni shaharga o'qishga borishini ayatdilar. Shokir ota qizining niyatini tushunmay, uning o'qishiga rozilik bermaydilar. Gulnora otasining noriziligiga ham qaramay, shaharga borib xoreografiya bilim yurtiga o'qishga kiradi.

Yoshlarning xalqaro festivalida qatnashayotganlar orasida Gulnora va uning do'sti Rahim ham bor. Otasi Gulnorani qo'lga kiritgan yutuqlarini ko'rib, qizini kuzatgani keladi.

Balet yakunida festival sahnasida turli mamlakat yoshlarining raqslari namoyon bo'ladi. "Raqqosa"ning musiqali-xoreografik kompozitsiya o'zining umumiy xususiyatlarida klassik balet spektakllari tuzilishiga tayanadi. Buni raqs va pantomimo epizodlarining almashishi, yaxlit kompozitsiyaning asosi sifatida klassik syuita va xalq raqs syuitalari mavjudligida ko'rish mumkun. Balet musiqasi yorug' lirik ohanglarda ifodalanadi, dramatik tarang epizodlardan xoli bo'lib uning musiqiy dramaturgiyasi leytmotiv tizimiga asoslangan. Asosiy musiqiy tavsifi mavzulari to'rtta, ya'ni ikkita Gulnora mavzusi yana biri Shokir ota va oxirgisi muallifning nomlashiga ko'ra "omma leytmotivi"dir. O'zbek lirik qo'shiqlari "Qal'abandi" kuyi Gulnoraning asosiy leytmotivi ишқэдишб qahramonning nozik musiqali ko'rinishini ifodali gavdalantiradi:

Kompozitor gulnoraning o'z uyidan ketish vaqtidagi g'amgin holatini ifodalashda "Bo'lmasa" xalq qo'shig'idan foydalanadi.

Balet voqeasi davomida ommaviy sahnalarda aks etadigan bayram, shodiyona daqiqalar bilan bog'liq leytmotiv kompozitor tomonidan ifodali va aniq yaratilgan. Kompozitor mazkur baletda xoreodrafik klassikani o'zbek musiqasiga

yaqinlashtirishga harakat qilgan. "Raqqosa" baletning musiqasida kuyning sekin-asta harakati, keng sakrashlarning yo'qligi, pastki registrda boshlanib so'ngra yuqoriga intilish va tonikaga ravon qaytishlar muhim o'rin egallaydi. Mushel mazkur asarda o'zbek xalq qo'shiqlariga xos lادلarni keng qo'llagan. Umuman, balet shodon xarakteri, jozibali qahramoni bilan tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi. Mazmunining zamonaviyligi, musiqaning ifodaviyligi, raqsbopligi "Raqqosa" baletining sahnada uzoq umr ko'rishiga sabab bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'quvchilarning estetik madaniyatini shakllantirishda opera va balet asarlarini tinglash va bolalar opera asarlaridagi qo'shiqlardan namunalar kuylashning ahamiyati kattadir.

Shuningdek bolalar opera asarlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish orqali o'quvchilarning tarbiyasini yanada rivojlantirish mumkin.



### **II. 3. Maktabda tajriba –sinov ishlari olib borish va natijalarini aniqlash**

5-7 sinf o'quvchilarining kuylash malakalarini rivojlantirishda musiqa darajasiga hos faoliyat tirlaridan biri bo'lgan jamoa bo'lib qo'shiq kuylash muhim o'rin tutadi. Jamoali kuylash jarayonida barcha o'quvchilar birdan kuylash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa o'quvchilarga olam jahon zavq bag'ishlaydi. Barcha sinfdoshlari bilan birgalikda hamjihat bo'lib kuylaganlarida o'quvchilar bu birlashishda qanchalik katta kuch borligini chuqur his qiladilar. Zero, xor jamoasida qo'shiq kuylash barcha yoshdagi kishilat uchun ham zavq bag'ishlay oladi. Afsuski, kattalar bunday baxtni his qilish baxtidan benasib bo'lib qoldilar. Chunki, kattalarni birlashtiruvchi xor jamoalari bizning xalqimiz uchun odat bo'lmagan. Xususan, ko'pchilikni birlashtiruvchi pensionerlar xori yoki katta yoshdagi kishilar xori deyarli uchramaydi. Vaholanki, yevropalik qariyalardan tuzilgan xorlardan keksalar ham cheksiz zavq-shavq bilan kuylaydilar va o'zlarining yolg'iz ekanligini his qiladilar.

O'smir yoshdagi bolalar uchun xorda kuylash nihoyatda zavqli va unda o'quvchilar boshqa o'quv predmetlaridagi charchoqni sezmay qoladilar. Ayni paytda shuni alohida ta'kidlash lozimki, musiqa darslarida bolalarning vaqtini boshqa faoliyat turlari bilan ko'proq mashg'ul bo'lish hollari ham uchraydi. Bu esa o'quvchilar jamoa bo'lib kuylashidek zavq bera olmaydi.

Shuningdek, xorda kuylaganda o'quvchilarga haddan tashqari ko'p tanbex berish, ularni kuylashdan to'xtataverish ham ularni ranjitib qo'yadilar. Sinfdagi barcha o'quvchilar ham birday kuylash qobiliyatiga ega emasliklarni his qilgan holda ular tomonidan yo'l qo'yiladigan ayrim kamchiliklarni norozi bo'laverishi ham yaramaydi.

Xorga xos bir qator muhim elementlar mavjudki, bu spetsifik xususiyatlarga amal qilish o'quvchilarning kuylash malakalariga professionalizmlilik kirita oladi.

Barcha insonlar singari bolalar ovozi ham har doim birday qo'shilavermaydi. Ko'pincha bu o'quvchilarning kayfiyatiga, salomatligiga va o'quvchiga ham bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ma'lum bir notani kuylaganlarida birisi sezilar-sezilmas darajada pastroq ba'zisi baland va ba'zisi barqaror kuylaydilar. Bunda talafuzlar majmuasi tabiiy soz deyiladi. Fortepianoda ma'lum asarda jaranglaydigan notaga ega pasaytirishga ham, yuqorilatishga ham moyillik ko'rsatmaydi. Shuning uchun ham bu cholg'u asbobining sozini tekkis soz deb yuritiladi.

Ta'lim samaradorligini oshirishda olib borilgan sinov tajriba ishlarini amalga oshirish uchun biz eng avvalo ikkita guruhni tanlab olib va ularning bittasini eksperimental sinf sifatida qabul qildik va ikkinchisini nazorat sinfi sifatida tanladik.

Tajriba sinf o'quvchilari bilan maxsus ish olib borib, undan o'quvchilarga bir qator muhim elementlarni singdirish va ma'lum bilim berish ishlari amalga oshiriladi. Ikkinchi guruhdagi o'quvchilar esa odatiy tarzda o'qitiladi.

Tajriba-sinov ishlari Qarshi shahridagi 1- sonlu ixtisoslashgan umumta'lim maktabida olib borildi.

Tajriba sinflariga qo'yilgan talablar asosan quyidagilardan iborat bo'ladi.

1. O'quvchilarni opera va balet janrlari tarixiga oid materiallar bilan qurollantirish.

2. Ularning nota yozuvidan erkin foydalana olish texnikasiga ega bo'lishi.

3. Ularning Yevropa uslubida kuylash an'analarini egallashi.

4. Jahon va o'zbek opera asaridan xabardorligi. Bu asarlarni yaratgan kompozitorlari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi.

5. Bolalar opera asarlaridagi qo'shiqlardan namunalar kuylay bilishi, ashulachilik texnikasidan xabardorligi va undan amaliyotda foydalana olishi (nafas, tovush hosil bo'lishi, tanglayda jaranglashi va bog'iz komida salmoqlanib talaffuzga aylantirilishi).

Sinov- tajriba sinfi o'quvchilari bilan oldindan rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirish bo'yicha tizimli ravishda ish olib borildi.

Tabiiyki sinov - tajriba sinfi bilan nazorat sinfi o'rtasidagi farqdan biz olib borgan ishlarning qay darajada foydali ekanligini aniqlab olish mumkin bo'lar edi. Shu farqni aniqlash nuqtai nazaridan o'quvchilar uchun anketa savollarini tuzib shu asosda ularning bilimlarini aniqlandi.

Anketa savollarini tuzishda biz olingan mavzuning yo'nalishidan kelib chiqqan holda yondoshdik va tuzilgan anketalar quyidagi savollarni o'z ichiga oladi:

O'quvchilarning bilimini aniqlash uchun tuzilgan anketa savollari.

1. Jahon opera san'ati haqida bilasizmi?
2. O'zbek operalarini yaratgan kompozitorlar haqida gapirib berining?
3. Bolalar opera asarlaridagi qo'shiqlardan namunalar kuylab bera olasizmi?
4. Qaysi opera asarlaridan ariyalar tinglashni xoxlaysiz?
5. O'zbek opera ijrochilaridan kimlarni aytib bera olasiz.?
6. Balet janri haqida bilasizmi?

O'quvchilar uchun tuzilgan bu anketa savollari bilan murojaat qilishda ularning erkin fikr yuritishlari va savollarga yetarlicha to'liq javob berishlariga to'la imkoniyat yaratib beradi.

Anketa savollarini faqat tajriba sinfi o'quvchilariga, balki nazorat sinfi o'quvchilariga ham to'liq tarqatiladi. Talabalarning egallagan bilimi va malakalarini baholashning asosiy mezoni qilib tuzilgan anketa savollariga berilgan javoblar asos qilib olindi.

Anketa savollariga olingan javoblarni tahlil qilish asosida, ular egallagan bilim va ko'nikmalarning bir-biridan farqi aniqlab olinadi. Anketa savollari tahlili shuni ko'rsatadiki sinov-tajriba ishlari olib borilgan sinflarda yuqori darajadagi ko'rsatkichlar soni anchagina ko'proq bo'lib, nazorat sinfida esa bu raqamlar anchagina past ko'rsatkichga ega bo'ladi.

Nazorat sinfidagi past darajadagi ko'rsatkichlar salmoqli darajada bo'lgani holda sinov-tajriba ishlari olib borilgan sinflarda past darajadagi javoblar soni anchagina kam raqamni ko'rsatadi.

Ayni paytda sinov-tajriba sinfi o'quvchilarining orttirgan bilim ko'nikmalarida ham sezilarli farajada ijobiy natijalar mavjud.

Pedagogik tajriba – sinov natijalarini tahlil etishda o'quvchilarning estetik sifatlarini o'sish dinamikasi va pedagogik texnologiyalarni tadbiq etilgan natijalarini bilish uchun matematik – statistika metodi qo'llanildi . O'quvchilarni tajribadan keyingi o'zlashtirishlari quyidagi jadvalda aks etgan .

O'quvchilarning tajribadan keyingi o'zlashtirish darajalari ;

Sinflar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish yuqori	darajalari o'rta	past
tajriba	166	78	64	44
nazorat	160	42	45	93

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonida tajriba guruhining , nazorat guruhining o'zlashtirish darajasidan yuqoriligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki tajriba sinfidagi o'zlashtirish nazorat sinfini o'zlashtirishidan yuqoriligini ko'rsatib turibdi. Xulosa qilib aytganda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining o'zbek opera va balet janrlarini o'rganishlari orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi aniqlandi va u yaxshi natijalar berganligi amalda isbotlandi

## **Xulosa**

Mamlakatimizda istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab yoshlar tarbiyasi, xususan sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazish masalalariga boshqa ustivor vazifalar qatori alohida e'tibor berib kelinmoqda. Yoshlarning qalbi va ongini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi ruhida tarbiyalash ularni zamonaviy bilim va hunarlarni egallagan har tomonlama aqlli, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi.

Musiqqa san'ati insonni axloqiy, madaniy-ma'rifiy tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, hamma davr va jamiyatda musiqqa san'ati va uning taraqqiyotiga katta e'tibor berib kelingan.

O'zbek musiqqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruhiyati hayoti oliy insoniy faoliyatlari, badiiy ma'naviyati istiqlol va mustaqillik uchun kurashi, orzu umidlarini aks etadi. Musiqqa ta'lim tarbiyasining maqsadi yosh avlodni, maktab o'quvchilarini, milliy musiqqa merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazib tarbiyalashdan iboratdir. Buning uchun o'quvchilar musiqqa san'atini butun nafosati, go'zalligi bilan o'rganishlari, uni badiiy idrok etish, jamoaviy tarzda kuylash, raqs tushish va ijodkorlik malakalarini egallashlarida musiqqa madaniyati mashg'ulotlarida keng foydalanish talab etiladi. O'quvchilarning musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqqa san'atiga mehr-ishtiyoqini oshirish, musiqqadan zarur bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish ularning musiqqa haqidagi bilimlarini kengaytirishda jumladan opera asarlarini tahlil eta olish mazmuni-mohiyatini to'g'ri tushinish kabilarni amalga oshirish ustoz-o'qituvchidan katta mahorat, samarali uslublardan foydalanishni taqozo etadi. O'quvchilarda opera va

balet janrlarini tinglash va idrok qilishga o'rgatish metodlarini maktabda tajribada tadqiq qilish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik

1.O'pera va balet janrlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish ma'naviy barkamol insonni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

2.Bolalar operalaridan namunalar kuylash jarayonida o'quvchilar qo'shiq matnida mazmun mohiyatini go'zallikka yanada oshno bo'lishni, xullas insoniylikka xos barcha ijobiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtira boradi.

3.Opera va balet janrlarining qamrovi ancha kengdir, uning tarbiyaviy imkoniyatlari insonni ma'naviy jihatdan kamol topishida muhim o'rin tutadi va yaxshi samaralar beradi.

4.Tinglangan opera va balet asarlari o'quvchilarning badiiy estetik tafakkurini shakllantirishga yordam beradi.

5.Opera va balet asarlarini o'rganish orqali o'quvchilarning estetik madaniyati rivojlanadi. Yosh avlodning musiqa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda opera va balet janrlarini o'rganish muhim o'rin egallaydi.

Mustaqil rivojlanish davrida xalqimiz o'z oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarining ushalishini ta'minlovchi eng ishonchli yo'llaridan biri: bu – ta'lim va tarbiya, yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish ma'naviy va ma'rifiy rivojlanishini eng yuksak darajaga ko'tarishdir. Bu ulkan vazifalarni bajarishda “Musiqa madaniyati” mashg'ulotlaridan unumli foydalanish, musiqaning ta'sirchan vositalarini ishga solish kerak. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan tub yangilanishlar yangi shart-sharoitlar o'qituvchining mehnat faoliyatiga salbiy-pedagogik tayyorgarligiga ham talablar qo'ymoqda. Ilgari fan o'qituvchisi asosiy e'tiborni o'z predmeti bo'yicha ta'lim metodlarini takomillashtirishga qaratgan bo'lsa, bugun ta'lim jarayonida o'quvchilarning tarbiyasini va rivojlanishini umumlashtirgan holda olib borish ta'lab etiladi chunki musiqa san'ati bugungi kunda

yoshlarimizga yetuk ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda kuchliroq ta'sir etmoqda.

Xulosa qilib aytganda musiqiy ta'lim-tarbiyaning eng ilg'or zamonaviy yutuqlaridan foydalanish, mumtoz asarlar bilan birgalikda o'zbek opera va balet janrlarini targ'ib qilish orqali yoshlarimizning musiqa san'atiga nisbatan qiziqishi va muhabbati ularda yuksak ma'naviy estetik taqrbiyani shakllantirish hozirgi zamon musiqa ta'limining va musiqa ta'limi pedeagoglarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. "O'zbekiston" -2011 yil.-439 bet.
2. Karimov I .A. „ Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish taraqqiyotimizning muhim omillidir’’Toshkent,„O'zbekiston’’ 2010yil. -92 bet.
3. Karimov I.A.,„Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch ’’Toshkent’’ Ma'naviyat’’ 2008 yil 141 – bet, 9-bet.
4. Karimov I.A. „Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va farovonligini yanada yuksaltirishdir ’’ Toshkent 2010yi. -77 bet.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.Toshkent .Sharq -1998. -220 bet
6. Karimov I .A. „ Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish ’’ Toshkent „ O'zbekiston ’’ 2009 yil . -23 bet.
7. Abdullaev R. Opera dramaturgiyasi. Toshkent. 2007-yil. -87 bet
8. Amanullayeva D. Estrada va jaz vokalizlari, “Musiqqa” nashriyoti Toshkent, 2014 yil, -155 bet.
9. Begimatov S. Mamirov Q., Mansurov A., Karimova D, Ro'ziyev I. Musiqqa 6-sinf uchun darslik. G'.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 2001-yil -88 bet.
10. Jabborov A. Musiqiu drama va komediya janrlari. O'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. O'z DK.Toshkent. 2000-yil.. -188 bet.
11. O'zbek bastakorlari va musiqashunoslari. O'z DK. –T.: 2015 yil -407 bet
12. Ismoilova.M. E. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy ahloqiy fazilatlarini shakillantirish. Toshkent “Istiqlol” 2000-yil. -136 bet
13. Ibrohimov.O. J. Sadirov. 7-sinf uchun darslik. G'.Gulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2004-yil. -102 bet.



14. Mansurov A., Hakimova D. Musiqa 5-sinf uchun darslik G'. Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 2001-yil. -96 bet
15. Ismoilova M. Vokal o'qitish metodikasi. Oliy va o'rta maxsus musiqiy ta'lim talablari uchun o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent musiqiya nashriyoti. 2011-yil. -61 bet.
- 14 Rizayeva M, Yosh xonandaning kamoloti. Toshkent "Cho'lpon" nashriyoti, 2003-yil. -104 bet.
16. Sharipova T. M. "Musiqa o'qitish metodikasi" (O'zbekiston'quv qo'llanma Toshkent 2008-yil). -96 bet.
17. Muhammedova G. Xonandalik uslubiyati asoslari. O'z.D.K. Toshkent 2007-yil. -102 bet
18. Karimova .D. "Musiqiy pedagogik mahorat" asarlari "Iqtisod moliya" 2008-yil. -103 bet
18. "San'at yo'nalishlarida yoshlarni na'naviy-axliqiy tarbiyalash: izlanish, echim, va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Buxoro-2013-yil. 70 -71 betlar.
20. Qodirov. G.Q. Boshlang'ich maktabda ovozli kuylash. Toshkent "O'qituvchi" 1992-yil. -156 bet.
21. Hamidova M.A. Xonandalik san'ati "San'at" jurnali nashriyoti. Toshkent 2009-yil. -247 bet.
22. Yuldasheva N. Raxmatova N. O'zbek musiqiya adabiyoti. "Iqtisod-moliya" Toshkent. 2010-yil. -138 bet.
22. Xolboyeva G. Yakkaxon qo'shiqchilik asoslari. -T.: 2008-yil. -183 bet.

# Ilovalar

ОЙХОН АРИЯСИ  
АРИЯ ОЙХОН

**Andantino** *capriccioso*

Ойхон:

Ойхон:

*mp*

То- қа- тим тоқ  
Я у- ме- реть

бўл- ди, о- қар кўз- ё- шим,  
ра- да — столь- ко зла кру- гом!

ют- га- ним за- ҳар- дир, зақ- қум- дир о-  
Пи- ша пол- на я- да, яд в пить- е мо-

шим, не кун-лар- га қол- ди  
ем! Вы-тер-петь нет си- лы!

бу е- тим бо- шим, меҳ- ри- бо- ним,  
Мрак в ду- ше мо- ей... Где ты, Чу- бон

о- та-жон, кел, қай- да- сан?  
ми- лый? О, спа- си ско- рей!

Мено mosso

Ў- гир- лаб кел- тир- ди ме- ни шум Қо-  
За- пер ме- ня сю- да злой ста- рик — су-

зи,  
дья.

Темпо I

так-ли- фи- га ас- ло, ас- ло бул- ма- дим ро-  
Но стать е- му же- ной... Нет! Нет! Не со- глас- на

зи,  
я! сен- га ет- май-  
В — той тюр- ме

ди бу Ой-хон о-во-зи, Чу-по-на-ли,  
страш-ной я судь-бу кля-ну! Где ты, Чу-бон?

хо-ла-жон, кел, қай-да-сан?  
О, спа-си! Знай — я впле-ну!

*pp* *Meno mosso*  
Кел, қай-да-сан, кел, қай-да-  
Знай — я впле-ну! Знай — я впле-

сан, кел!  
ну! Знай!

## Izlaring

(Toxir va Zuxra operasidan Mohim ariyasi)

Bu ariya Xorazm saxnasi uchun yozilgan bo'lib, unda Mohimning Toxirga bo'lgan sevgisi izxor qilinadi. Ariya yorqin uslubda yozilgan, tetik tovush bilan erkin va ravon ko'ylanmag'i lozim. Aniq talaffuz ovozni yurg'izishga xalakit bermasligi kerak.

S. Abdulla sh'eri

T. Jalilov, G. Sobitov, B. Giyenko musiqasi

**Allegro moderato**

The piano introduction is in 4/4 time. The right hand starts with a series of eighth notes, followed by a melodic line with some grace notes. The left hand provides a steady accompaniment of eighth notes. Dynamics include *f* and *rit.*

**A tempo** *mf*

The vocal line begins with the lyrics "Iz-la-ring o'p - moq - qa Xo - razm ich-ra har gul -". The piano accompaniment features a steady eighth-note bass line and chords in the right hand. Dynamics include *mf*.

The vocal line continues with the lyrics "zor zor. Boq-ma-sang ho - lim - g'a, jis - mim". The piano accompaniment continues with a steady eighth-note bass line and chords. Dynamics include *p*.

The vocal line concludes with the lyrics "jo - ni-dan be - zor zor. Na-q(d) jon bir -". The piano accompaniment continues with a steady eighth-note bass line and chords. Dynamics include *p*.

- la ja-hon-da men ho-ri-do-ring bo'-lay,

Do-i-mo iz - lash - da yur - dim ko'-cha-yu bo -

zor zor. Qo-ma-ting ko'r - gan - da ish - qing jon-gao't sol-

di ne-tay. Raxm e-tib ko'k -



- sim - ga sol - ma. qa-x(i)r-dan o - zor zor

The first system of the musical score consists of a vocal line on a single treble clef staff and a piano accompaniment on two staves (treble and bass clefs). The vocal line begins with a melodic phrase in 7/8 time, followed by a rest and then a more rhythmic passage. The piano accompaniment provides a steady bass line with chords in the right hand.

Qo'r-qa-man, vas - ling - gayet - may, o'l-ma-sam ar - mon b(i)-lan,

The second system continues the musical score. The vocal line features a melodic line with some grace notes and a final phrase. The piano accompaniment includes a prominent bass line with some chromatic movement and chords in the right hand.

Il - ti-fot ko'r - sat - ma-sang men

The third system shows the vocal line with a melodic phrase and a final note. The piano accompaniment features a bass line with eighth notes and chords in the right hand.

yig'-la gay - man zor zor. Mar-xa-mat, lut -

The fourth system concludes the page. The vocal line has a melodic phrase and a final note. The piano accompaniment features a bass line with eighth notes and chords in the right hand.

